

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RASULOVA RAYXON BAXRITDINOVNA

**UMUMTA’LIM MAKTABLARINING 7-9-SINF O‘QUVCHILARIDA
MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI**

Monografiya

**TOSHKENT
«ILM ZIYO ZAKOVAT»**

2023

UDK: 505.263:00

KBK: 822.235.10

R 956

RASULOVA R.B.

Umumta'lim maktablarining 7-9-sinf o'quvchilarida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari [**Monografiya**] / – T.: “Ilm ziyo zakovat”, 2023 yil, 112 b.

Taqrizchilar:

S. O'tanova – O'z.R.FA. O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo'limi

katta ilmiy xodimi.

M.Tadjibayev - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti

Monografiyada o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq madaniyatiga ega bo'lishda matn yaratish kompetensiyasi bilan bog'liq eng muhim jihatlar ochib berildi. Yozma nutqning odatiy-refleksiv va tezkor-operatsion xususiyatlari bilan assosatsiv uyg'unlashtirish asosida o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari va omillari aniqlashtirildi. Nutqni rivojlantirish va ijodkorlik muammolariga katta e'tibor qaratilib, umumta'lim maktab o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishning ilmiy – nazariy, pedagogik – psixologik va didaktik asoslari tahlil qilindi. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda yoshi va psixologiyasiga mos ravishda tizimli ishlar bo'yicha tavsiyalar beriladi. Unda idrok va tafakkurni o'stirish, matn g'oyasini o'zi kashf qilishda mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqish asoslari ishlab chiqilgan.

Monografiya pedagogika oliy ta'lim yurtlari talabalari hamda maktab o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik Kengashining 2023 – yil 29 maydagi 9-sonli majlis bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9778-7-9

© **RASULOVA R.B. 2023**

© «**Ilm ziyo zakovat**» 2023

KIRISH

Jahon ta'lim tizimlari amaliyotida o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlari talabi asosida tayanch ta'limiy kompetensiyalarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. Shaxsni rivojlantirishga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning yetakchi omili sifatida zarur kompetensiyalarni shakllantirish ta'limning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Dunyoda o'qitishda innovatsion texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo'llash va takomillashtirish, o'quvchi shaxsida tayanch ta'limiy kompetensiyalar, xususan, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlar fan va texnika, sport va intellektual salohiyat, kreativlik tafakkur va ijtimoiy-madaniy muloqot sohalarida dunyo miqyosida o'z tengdoshlari orasida raqobatlasha oladigan o'quvchi shaxsini tarbiyalashga qaratilgan. O'quvchilarning kommunikativ vaziyatlarda uchraydigan muammolarining namoyon bo'lishi, ularda adekvat muloqot ko'nikmalarining pastligi, muloqot uchun to'siqlarni yengish qobiliyati yetishmasligi o'quvchilar orasidagi shaxslararo munosabat orqali ta'lim samaradorligiga ham salbiy ta'sir etish ehtimoli yuqori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari; 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-son "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil mart oyidagi Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari surilgan beshta muhim tashabbusi hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekistonda o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish muammosi, xususan, o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari, o'quvchilarda ijodiy faollik va kreativlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari N.N.Azizxo'jayeva, U.Sh.Begimqulov, R.X.Jurayev, O.M.Musurmanova, E.A.Seytxalilov, N.M.Egamberdiyeva, F.R.Yuzlikayev, o'rta ta'lim jarayonida ona tili fanini o'qitish, o'quvchilarning ijodiy tafakkur va nutqini o'stirish masalalari Y. Abdullayev, N. Alavuddinova, A.Bobomurodova, N.Dadajonova, T.Ziyodova, N.Yo'ldosheva, M.Mirmaxsudov, H.Ne'matov, M.Omilxonova, N.Sattorova, M.Saidov,

R.Safarova, N.Shukrullayev, Sh.Yusupova, T.Yusupova, N.Qosimova, A.G‘ulomov, G‘.Hamroyev, K.Mavlonovalarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.G.Goreskiy, O.V.Djejeley, M.R.Lvov, M.I.Omorokova, N.N.Svetlovskaya, O.V.Sosnovskayalarning ilmiy izlanishlarida til va adabiyotni o‘qitishning ustuvor maqsadlari o‘rganilgan.

Monografiyaning maqsadi umumta’lim maktablari o‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Monografiyada quyidagilarga alohida e‘tibor qaratiladi:

o‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish;

sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirishning texnologik modelini ishlab chiqish;

matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlari metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini yoritib berish;

o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning sifat va samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish.

Monografiyada quyidagilar qayd etilgan:

yozma nutqning odatiy-refleksiv va tezkor-operatsion xususiyatlari bilan assosatsiv uyg‘unlashtirish asosida o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari va omillari aniqlashtirilgan;

sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirishning texnologik modeli modellashtirishning universallik va normativlik tamoyillarini maqsaddan natijaga yo‘naltirish hamda metodologik, tashkiliy, didaktik va natijaviy komponentlarning izchilligini modellashtirish usuli orqali ta’minlash asosida ishlab chiqilgan;

matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlari metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasidan real ta’limiy sharoitda foydalanish asosida takomillashtirilgan;

emotsional-obrazli, intellektual-ijodiy, refleksiv nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy-didaktik komponentlarini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga pedagogik-psixologik jihatdan motivatsion-dagnostik moslashtirish asosida o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning sifat va samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan.

Monografiyaning amaliy va nazariy ahamiyati o‘quvchilarning tasavvuri, fikrlashi, matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning uzviy integratsiyasi aniqlanganligi, umumta’lim maktab tizimida “Ona tili” predmeti hamda kursini o‘qitishning pedagogik texnologiyasi, shakl va metodlari takomillashtirilganligi, pedagogik amaliyotda o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish

uchun foydalanilgan innovatsion texnologiyalarning takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Kommunikativ kompetentlikni aniqlashning tizimli mezonlarini aniqlashtirishda, pedagogik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarida ona tili va adabiyot fani bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning matn yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

I BOB. O‘QUVCHILARNING MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi tadriji: tarixiy ekskurs

Ta’lim sifatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni jamiyat buyurtmasi belgilaydi. Zamonaviy jamiyatga esa mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor, ta’sirli nutqiy malakaga ega va ijtimoiy faol odamlar kerak. Shuning uchun davlat ta’lim standartlarida ona tili ta’limi mazmuniga qo‘yiladigan talablarda o‘quvchilarning muloqot malakalarini va ko‘nikmalarini oshirish, nutqiy ta’sir qilish qobiliyatini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida qaraladi.

Ta’lim nazariyasi rivojlanishining zamonaviy bosqichida o‘qituvchilar diqqat markazida kognitiv faoliyat mexanizmi va usullaridan, tegishli tushunchalar tizimini o‘zlashtirish jarayonida egallangan tajribaga ta’limning ustuvor maqsadlari sifatida qaraladi. Bu zamonaviy yondashuvlar mumtoz pedagogikaning qarashlariga asoslanadi. Buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylarning til, lug‘at, grammatika va mantiqshunoslikka oid asarlarida ta’limning ustuvor tamoyillari, mazmun-mohiyati va maqsadi belgilab berilgan. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) “Geodeziya” asarida inson nutqi tuzilishi ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lishini, uning nasr va nazm ko‘rinishlari mavjudligini ta’kidlaydi. Abu Nasr Forobiy (870-950) mantiqiy xulosalar chiqarishda, to‘g‘ri, mazmundor va go‘zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning o‘rni borasida “Ilmlar tasnifi” risolasida o‘z mulohazalarini bayon qilgan.

Jaloliddin Rumiyning “So‘z haqiqatning soyasi va parchasidir. Modomiki soya o‘ziga tortar ekan, u holda haqiqat yanada yaxshiroq jazb etadi”[114. 14]. “Har narsaning asli – so‘z... So‘z amal daraxtining mevasidir. Chunki u amaldan tug‘iladi. Ulug‘ Tangri olamni so‘z bilan yaratdi va “bo‘l!” [209.Qur’ondan] deyishi bilan bo‘ldi... So‘z insonning qiymati qadar qadrlidir”[114. 72] degan Qur’oniy kalomidan so‘zning inson hayoti uchun naqadar ahamiyatli ekanligi anglashiladi. Farididdin

Attor: “Ikki olamning asosi soʻzdir, chunki soʻz Haqdan mujda boʻlib keldi. Axir arshi aʼloda bitilgan “Lavhul mahfuz” ham soʻzdir. Hamma narsa Soʻzdan ijod etilgan va Soʻzga qaytadi...”[86. 11], deb aytadi. Ajdodlarimizning “Avesto” kitobida, Oʻrxun-Enasoy obidalarida ham soʻz haqida fikrlarni uchratamiz. “Devon-u lugʻatit turk”, “Qutadgʻu biligʻ”, “Hibat ul-haqoyiq” asarlarida ham badiiy soʻz haqida fikrlar mavjud. “Qutadgʻu biligʻ”da insonning yuzi va azizligining boisi soʻz ekani, inson oʻz nutqini goʻzal soʻzlar bilan ziynatlashi lozimligi taʼkidlanadi. Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq” asarida ijodkorlarni “soʻz durlarini tergan”, “tahsinga loyiq soʻzlarni qadrlagan” deya eʼtirof etadi.

Forobiyning “Kitobu-sh-sheʼr” asarida soʻz sanʼati, soʻzni badiiylik maʼnosida qoʻllash aytilgan. Mutafakkir soʻz haqida “Kalomu-sh-sheʼr va-l qavofi” (“Sheʼr va qofiyalari haqida soʻz”), “Kitobu-l-xitoba” (“Ritorika haqida kitob”), “Kitobu-l-lugʻat”, “Kitobun fi sanoʼati-l-kitob” (“Xattotlik haqida kitob”) asarlarida ham qimmatli mulohazalar bildirgan. “Kitobu-sh-sheʼr” asarida Arastuning “Fi sanoʼati-sh-sheʼr” (“Poetika”) asarida aytilgan fikrlarini: “Sofist eshituvchini gʻalatga undab, haqiqatga toʻgʻri kelmaydigan, nuqsonli narsalarni (odamning) koʻz oldiga keltirib qoʻyadi. Hatto u mavjud narsani nomavjud deb, nomavjud narsalarni esa mavjud deb tasavvur qildiradi.

Ammo taqlidchi (tasvirchi) boʻlsa narsaning teskarisini emas, balki oʻxshashini tasavvur qildiradi”[30.102] deb izohlaydi. Bu fikrlardan koʻrinib turibdiki olamni badiiy va maʼrifiy oʻrganishda, haqiqatni izlash va kashf qilishda tasvirchisanʼatkorlarning isteʼdodi, ijodi bebaho ahamiyatga egadir. “Bu sanʼatda shoirlikning tanlanishi odamda juda ham ulkan boylik sanaladi. Bu xuddi hozirgi zamondagi baʼzi shoirlar qilmishiga oʻxshab ketadi. Agar bir soʻzni sheʼrda boshqa soʻzga qofiyaday qilib qoʻyib, oldingi baytda lozim boʻlgan narsalarni yoki tasvirlash niyatida boʻlgan narsalarni yarata olsa, u holda odamda huzurbaxsh holat paydo boʻladi. Bu sanʼat ahli bilan rassom sanʼatida qandaydir munosabat bor. Oʻsha ikkala yaratilgan narsadularning shakllarida va mazmunlarida bir-biriga muvozanat, oʻxshashlik hamda farq bor. Ammo ikkalasi ham odamlar tasavvuri va sezgilarida bir maqsadga, taqlid qilishga yoʻnaltirilgan boʻladi”[30. 85] – deb izohlaydi Arastuning mimesis nazariyasini.

Unsuru-l-Ma'oliy Kaykovus mashhur "Qobusnoma" nomli nasihatnomasining 35-bobini she'r va shoirlik ta'rifiga bag'ishlagan: "Ey farzand, shoir bo'lishni istasang, harakat qil, toki so'zing oson va foydali bo'lsin, g'omiz va mushkul so'zdan parhez qilg'il, boshqalar uning sharhiga muhtoj bo'lgudek so'zni aytmagil, chunki she'r xalq uchun yoziladi, o'zi uchun emas. Bir xil vazn va qofiyaga qanoat qilmagil, tartibsiz she'r aytmagil. G'azalni go'zal va ravshan yozg'il, madhda baquvvat va baland himmat bo'lgil, har bir odamga loyiq so'z aytgil va har bir kishining qadriga qarab she'r bitgil".[123.193]

So'z san'atining jozib talab va ehtiyojlaridan boxabar bo'lgan mutaxassis olim yoqimli, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. Asarning 6-7- boblari bilim oshirish, so'z odobi, suxandonlikka aloqador: "Barcha hunardin so'z hunari yaxshiroqdur, nedinkim, hamma maxluqotdin odam yaxshiroq yaraldi va o'zga jonivorlardin odam o'n daraja ziyodadur va o'n daraja odamning badanida hamisha bordur. Beshi tashida zohirdur, beshi ichida pinhondur. Bular bir narsani yod qilmoq, hamisha esda saqlamoq, xayol qilish (tahayyul), farq qila bilish va nutq... Agar sening so'zlagan nutqingda foydali bir narsaning hidi kelib turmasa, bunday so'zning aytilmagani ma'qul. Bilimdonlar deganlar: so'z bir maydir, undan bosh og'rig'i (xumor) paydo bo'lur, so'z bosh og'rig'iga darmon ham bo'ladi".[123.50] Yaxshi va muloyim so'zlashni o'rganib, odat qilib olishni va amalda til-u dilning bir xil bo'lishini nasihat qilib: "So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u yaxshi so'z bo'lsa ham yomon ko'rinadi"[123.50],-deydi.

Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning so'zi va nutqidir. Kaykovus fikrini davom ettirib: "Ey farzand! So'zning yuz va orqa tomonini bilg'il, ularga rioya qilg'il, so'zlaganingda ma'noli gapir, bu notqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanini bilmasang, qushga o'xshaysan, bunday qushni to'ti deydir, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas"[123.68] -deb uqtiradi.

Kaykovus kishini chiroyli so'zlashga chaqirib, so'zlovchining so'zi tushunarli va quruq gap bo'lib qolmasligini bayon etadi: "...shunday kishini notiq (suhango'y) deymizki, uning har so'zi xalqqa tushunarli bo'lsin va xalqning har so'zi unga ham

ma'lum bo'lsin. So'zni juda qimmatli deb bilgil, chunki so'z har narsa emasdir. Bilgan so'zingni o'z joyida ishlatgil..."[123.68]. Alloma inson o'ylab, shoshmasdan gapirishi kerakligini uqtiradi: "Har ishda o'rtacha bo'lgil. Har so'zni aytishda va har bir ishni qilishda chidamli bo'l va shoshishdan qochgil..."[123.68]. Muallif bilag'onlik bilan so'zlarni buzib so'zlamaslikka, har doim mavjud til me'yorlariga asoslanib so'zlashga undaydi: "Har so'zni andisha bila boshlag'il, toki aytg'on so'zingdin pushaymon bo'lmag'aysan. Agar so'zni va ilmni yaxshi bilsang ham, hech bir so'zni buzma, to'g'ri ta'rifla. So'zni bir xil gapir..."[123.69]. Yana "Ey farzand, yozma nutqni yaxshi egallagil, xatni yaxshi bilgil, toki yaxshiroq mohir bo'lgaysan, hamisha xat yozishga mashg'ul bo'lg'il, nomada ko'p arz yozishni odat qilgil va nomani istioralar, ibratli hikoyalar, masallar, she'rlar, ibratli fikrlar bilan boyitgil. Eng yuksak uslub bila, nozik va qisqa so'z bilan gapirgil. Har so'znikim yozsang shirin, mustaar va muxtasar yozgil. Kotibga sohibi idrok bo'lmoq va kotiblik sirlarini yaxshi bilmoq, ramzli so'zlarni anglamoq lozimdir. Xattotlikka qodir bo'lib, har turli xatni o'qib yozishni bilsang, ulug' hunardir"[123. 210]deydi.

Nizomiy Aruziy Samarqandiy "Chahor maqola" ("Nodir hikoyatlar") asarining "She'r ilmining mohiyati haqida"gi bobida, shoirlik shunday san'atki, bu san'at orqali hayajonlantiruvchi tushunchalar hosil qilinadi va ta'sirchan o'xshatishlarni bir-biriga bog'laydi. U shunday yo'lda kichik ma'noni kattaga, kattani kichikka aylantiradi. Chiroyli(k)ni xunuk libosda ko'rsatadi, xunukni chiroyli suratda jilvagar qilishligini aytib, so'z san'ati sohiblarini ulug'lasa[187], ulug' fors shoiri Abdurahmon Jomiy "Silsilatu-s-zahab" ("Tariqat silsilasi") dostonida she'r san'atini dunyoda qanchadan-qancha tilsim bo'lsa, so'z uning kaliti va so'z sayqaligina dil zangini yuvishini aytib so'z qudratini e'tirof etadi. Hazrat Navoiy "Xamsa" muqaddimasida va "Hayrat-ul-abror" dostonining so'z ta'rifiga bag'ishlagan bobida so'zning qudrati, ya'ni Lavhu-l-mahfuz, Kalomulloh, inson qadri haqida o'z qarashlarini bayon qiladi. Navoiy so'zning "bashar vujudining sipehri (yulduzi), inson zotining javhari" ekanligi hamda barcha ezguliklar so'zda izohlanishini aytadi[22].

Adabiyotshunoslik manbalari orasida so'z san'atiga doir nisbatan salmoqli manba Shayx Ahmad Taroziyning "Funun-ul-balog'a" asaridir. Asar besh qismdan

iborat bo‘lib, adabiy tur va janrlar, aruz ilmi, qofiya, she‘r san‘atlari va muammo ilmiga bag‘ishlangan. Bundan tashqari Fuzuliy, Amiriy, Nodira, Ogahiy devonlarining debochalarida so‘z san‘ati, uning betakrorligi haqida fikrlar keltirilgan.

Umuman, X-XI asrlarda zaminimizda badiiy nutq yuksak darajada rivojlangan, uning nazariyasi mukammal ishlangan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vafoti 997.) “Mafotih-ul-ulum” (Ilmlar kaliti) asarida o‘sha davr nutq madaniyatining ayrim masalalari-devonxona ish qog‘ozlari, shakllari, ishlatiladigan istiloh (atamalar)lar, adabiyotshunoslik istilohlari va ta‘rifi haqida ma‘lumotlar berib o‘tgan. Unda badiiy tasvir vositalari, ularning turlari, fazilatlari haqida ham so‘z yuritiladi.

Professor Abdurauf Fitrat “Adabiyot qoidalari” qo‘llanmasida badiiy so‘z san‘ati haqida fikr bildirar ekan: “Adabiyot-fikr, tuyg‘ularimizdag‘i to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqunlarni yaratmoqdir”[10.13] deydi. Zokirjon Furqat esa “Shoir ahvoli va she‘r mubolag‘asi xususida” asarida she‘rning “qilu qoli”, ya‘ni so‘zning ta‘rif va tavsifi, nasr va nazmdagi shakl-shamoyiliga oid qimmatli fikrlar bildirgan.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tilimizga bo‘lgan munosobatni, ona tili ta‘limi mazmuniga qo‘yilayotgan talablarni o‘zgartirishga asos bo‘ldi. Bugungi kun ona tili ta‘limi maktabda o‘rgatilishi belgilangan til sathlaridan qat‘iy nazar, hatto adabiyotni o‘qitishda ham o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, shu orqali o‘z fikrini og‘zaki va yozma shakllarda mustaqil, mantiqli, ravon, lo‘nda va jozibali ifodalay olishiga erishishni talab etadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, albatta, o‘zbek tilining tengsiz xazinasini hisoblangan lug‘at boyligi va ushbu xazinamiz manbalari bo‘lgan mumtoz adabiy meroslarsiz samarali bo‘lishi qiyin.

Ona tilining barcha sathlarini o‘qitishda *matal, maqol, hikmatli so‘z, topishmoq, tez aytish, latifa, lof, terma, doston va didaktik-falsafiy rivoyat* namunalaridan tahlil materiali sifatida foydalanish nutq o‘stirishda samaradorlikka erishib, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Buning tag zamirida so‘z insoniyatning komillikka yetishuviga, ma‘naviyati yuksalishiga xizmat qilishi zarurligi nazarda tutilgan. Lekin bugungi ta‘limda insonga emas, so‘zga xizmat qilish kuchayib borishi bilan bog‘liq jarayon kuzatilmoqda. “Ilohiy qudratga ega va insoniyat uchun

quvvat manbai hisoblanmish soʻzga bugun toʻgʻri munosabatdamizmi?” degan savolga javob berishda qiynalib qolmoqdamiz. Bolalarimizni barkamol inson boʻlib yetishuvida soʻz qurilishi emas, balki mohiyatini oʻrgatish va undan toʻgʻri foydalanish koʻnikmalarini shakllantirishga yetarlicha harakat qilish davr talabidir.

Ilmiy, ilmiy-metodik manbalarda taʼlim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, rus pedagog-olimlari I.Ya.Lerner taʼlim mazmuniga oʻquvchilarning oʻzlashtirishlariga moʻljallangan, metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida qaraydi.

XIX asrdayoq til bilimlarini mexanik yodlash emas, nutq amaliyotida oʻquvchilar tomonidan ongli qoʻllash tarafdorlari koʻpaya boshladi. Ular ona tilini oʻzlashtirish jarayonida oʻquvchilarning aqliy va badiiy qobiliyatlari rivojlanish vositasini koʻrdi va uni axloqni shakllantirish asoslari, deb qabul qiladi. Nutq madaniyatini rivojlantirish bolalar taʼlim-tarbiyasining markazi hisoblanib, ona tili va adabiyotni sifatli oʻqitishning maqsadi oʻz fikrlarini toʻgʻri ifodalash qobiliyati hamda badiiy asarlarda mavjud nutq shakllarini oʻzlashtirishdan iborat. Ushbu maqsadlar uchun nutq amaliyoti jarayonida ibratli badiiy matnlarni oʻqish va muhokama qilish mashqlar tizimi, nutq qoidalarini oʻrgatish metodikasi nutqni rivojlantirish usullari asosini tashkil etishi lozim.

Bolalar nutqini rivojlantirish va ijodkorlik muammolariga katta eʼtibor qaratgan Lev Nikolayevich Tolstoy 1859 yilda dehqon bolalari uchun Yasnaya Polyana ochgan maktabida bolalarning nutqi va ijodiy qobiliyatlari rivojining ragʻbatiga bagʻishlangan taʼlim vositalarini qidiradi. Shu vositalardan biri insholar yozishda deb bilgan L.N.Tolstoy “Kim kimdan yozishni oʻrganishi kerak: bizdan dehqon bolalarimi yoki dehqon bolalaridan biz?” (1862) maqolasida bolalarni ijodga uygʻotish maqsadida tuzilgan vaziyatni tasvirlab beradi. Bunday vaziyat oʻquvchilarga tayyor tugallangan asarni berish emas, balki oʻquvchilar ijodiy jarayonlarni kuzatishlari va bu jarayonda faol ishtirok etishlarini taʼminlashdir, deydi. Tolstoy ijodiy jarayonga qiziqish uygʻotish uchun birinchi insholarni oʻqituvchi va oʻquvchilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida yozishni taklif qiladi. Insholar yaratishda oʻquvchilarning qoʻshma ishda ishtiroki oʻzlarining ijodiy imkoniyatlariga ishonch hosil qilish, tasavvur qilish,

badihago'ylik(improvizatsiya) va tashabbuskorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Yozuvchining fikricha, o'quvchilarda insho yaratish jarayoniga qiziqish uyg'otadigan va muvaffaqiyatini ta'minlaydigan yana bir muhim omillaridan biri bolalarni butun ijodga-mavzuni tanlashdan tortib to amalga oshirishgacha bo'lgan jarayonga, ularning qiziqishlarini, idrok etish, qabul qilish jihatlarini, hayotiy va hissiy tajribalarini hisobga olib jalb qilinishidir.

Ona tilini o'rganishning asosiy maqsadlarini aniqlash bilan bog'liq masalalar XX asrning boshlaridanoq ilmiy metodistlarning diqqat markazida bo'ldi. Ammo og'zaki va yozma nutq madaniyatiga ega bo'lishda nutqiy muloqotning eng muhim usuli sifatida ona tilini o'rgatishga, ya'ni til o'qitish metodikasiga yetarlicha e'tibor berilmadi. "XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida vatanimizda ona tili ta'limining jadidchilik harakati bilan bog'liq yangi turdagi o'zbek maktablari uchun darslik va qo'llanmalar yaratish davri boshlandi"[261].

Ko'rinib turibdiki, bugungi "Ona tili" darsliklariga tamal toshini jadidlar qo'ygan. O'tgan asrning 30 yillarida yaratilgan "Ona tili" darsliklari, xususan, ilk "O'zbek tili" darsliklarining yaratilishiga xizmat qilgan olim Abdurauf Fitrat "O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba", "Sarf" kitobida qimmatli ma'lumotlarni beradi va *"Bu holat tilimizning yengillik istaganidan kelib chiqib qolg'on bir hol"* deb izoh beradi[91. 36]. Professor A.Fitratning fonetika, xususan, nutq tovushlari, talaffuz va ohangdoshlik masalalariga milliylik nuqtayi nazaridan yondashganini kuzatamiz. Olimning milliylikka yo'g'rilgan ilmiy asoslari, pishiq qarashlari o'z vaqtida maktab o'quvchilari uchun yaratilgan "O'zbek tili uchun darslik"larida ham o'z aksini topgan edi. Xususan, buni bevosita Q.Ramazon va X.Qayyumiymlarning darsligi[214] misolida ham ko'rishimiz mumkin. Darslik mualliflari ham A.Fitrat yo'lidan borib, tilning milliy xususiyatlariga jiddiy e'tibor qaratishgan. Ta'kidlash kerakki, darslikdagi atamalarning ham aksariyati o'zbekcha (*so'zlav a'zolari, so'z tuzumi...*).

Bugungi kunga qadar umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun bir qancha "Ona tili" darsliklari yaratildi, lekin ulardagi o'quv materiallarining hammasi ham talabga javob beradimi, degan savol atrofida mulohaza yuritishga to'g'ri keladi. Professorlar Hamid Ne'matov va Asqar G'ulomov ona tili ta'limining bugungi

holatini, uni yaxshilashda nimalar qilish kerakligini, o'quvchilarga nimalarni o'rgatish lozimligini jiddiy tahlil orqali o'rinli asoslagan edilar[281. 32].

“Nutqni rivojlantirish” terminologik iborasi ilmiy adabiyotlar va o'quv dasturiga XX asr boshlarida kiritilgan. Bu davrdan ona tilini o'qitish vazifalari, o'quvchilarning mustaqil nutq faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirila boshladi va o'z navbatida, tegishli islohotlarga zarurat tug'ila boshladi.

Ushbu ehtiyoj tufayli umumta'lim maktablarida ona tili fani mazmuni o'qish va yozish ko'nikmalarini o'zlashtirishni, tizimli boshlang'ich grammatik kurslar, imlo, tinish belgilarining asosiy xususiyatlari tarkibini aniqlashni, nutqni rivojlantirish mashqlari bilan tushuntirib o'qitish yo'llarini o'z ichiga olgan. Xorij ta'limida nutqni rivojlantirish ritorika darslarida, keyinchalik XX asrning 60-yillariga qadar adabiyot darslarda amalga oshirila boshlandi. Shunday qilib, o'quvchilar nutqini rivojlantirish nazariyasi va usullari dastlabki bosqichining asosiy xususiyati nutqni rivojlantirish asosiy vositasi sifatida badiiy o'qishni ko'rib chiqish edi. O'quvchilarning o'qish doirasini belgilash va tashkil etish yo'llaridan biri sifatida o'z davrining eng yaxshi yozuvchi va shoirlarini zamonaviy hayot, mamlakat tarixi va boshqa voqealar haqida bolalar uchun asarlar yaratishga jalb qilish etib belgilangan. XX asrning boshlarida Abdulla Avloniy, Hamza, Fitrat, Elbek, Munavvarqorilar tomonidan yozilgan darslik va qo'llanmalarda bolalarning kitob o'qishi, axloq-odobi haqida materiallar berilgan.

O'tgan asrning 20-yillarida Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, G'afur G'ulom, G'ayratiy, Shokir Sulaymon, Oybek va boshqalarning katta yoshdagi bolalar uchun yozgan asarlarida ham kitob o'qish, ilm egallash, mehnatga chaqiriq keng o'rin olgan. Keyinchalik bu safga Z.Diyor, D.Oppoqova, M.Fayziy, Ilyos Muslim, A.Rahmat, Sh.Sa'dulla, Quddus Muhammadiy, H.Nazirlar kirib kelishdi. Bolalar adabiyoti tez sur'atlarda rivojlandi va 30-yillarda, o'zining professional shoir va yozuvchilariga ega bo'ldi. Bu davrda jahon adabiyotidan juda ko'plab asarlar kichik kitobxonlarimiz uchun o'zbek tiliga tarjima qilindi. O'zbek bolalar adabiyoti namoyandalarining paydo bo'lishi va ularning millat ruhiyatigaa mos keluvchi asarlarining darsliklardan o'rin egallashi o'sha davr maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning nutq

ko'nikmalarini oson va sifatli o'zlashtirishlariga, bu esa, ularning ijodkorlik va matn yaratish layoqotlari ham shakllanishiga xizmat qildi.

Shu davrga kelib o'quvchilarning matn yaratish faoliyatini tashkil qilish zaruratiga tasavvurlarni boyitish, o'quvchilarga tayyor matn bilan ishlashni o'rgatish va ijodiy taassurotlarini to'plash, atrofdagi dunyoni maqsadli kuzatish, o'zlarining ijodiy tajribalari bilan o'rtoqlashuv asosida dialoglar tuzish, matn yaratish va tahlil jarayonida reflekslar hosil qilish kabilar o'quvchilarning ijodiy muvaffaqiyatini belgilash metodlari mazmunini belgilaydi.

Bolalar adabiyoti so'z san'ati sifatida uzoq tarixga ega bo'lsada, uning fan sifatida shakllanishi XX asrning 20-30-yillariga to'g'ri keladi. Bolalar nutqiga qiziqish va bolalar adabiyotining so'z san'atiga tegishli maxsus adabiyot va fan sifatida shakllanish tarixi yuzasidan P.Shermuhamedov, O.Safarov, G'.Jahongirov, O'.Rashid, A.Suyumov, R.Barakaevlarning turlicha qarashlari mavjud. R.Barakaevning «O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi» nomli kitobida bolalar adabiyotining shakllanish tarixi, so'z san'ati va fan sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari Abdulla Avloniy va Hamza ijodi misolida to'g'ri qayd qilingan. Ayniqsa, Hamza Hakimzoda Niyoziyning bolalarga mo'ljallangan sahna ijrosi uchun yaratilgan dialog ko'rinishidagi asarlari diqqatga sazovordir. Ularning darsdan tashqari mashg'ulotlarda, darslarda ijro etilishi o'quvchilarda ijodkorlik hamda kommunikativ kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qilgan.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslar, sotsiolingvistlar va metodologlar qarashlari tilshunoslik tizimidan nutqqa va matnga ko'chirildi. Bu esa psixolingvistikani fan sifatida shakllantirdi. Bu jarayon xorijiy psixolog va tilshunoslar: J.Miller, V.Ingve, N.Xomski, D.Slobina, Yana Prux va boshqa nutq tadqiqotchilarining asarlari, shuningdek, 50-yillar psixolog va tilshunoslari: A.A.Leontev, I.A.Zimney, R.M.Frumkina, A.P.Klimenko, A.E.Suprun, Yu.A.Sorokin, L.V.Saxarniy va boshqalarning asarlarida aks etgan. Ta'limda matn bilan ishlash jarayonlarini tashkil qilish borasida psixolingvistlarning nutq motivlari, uning predmeti, qabul qiluvchi tomonidan nutq idrok etilishi, qabul qiluvchi va nutq niyati haqidagi fikr-mulohazalari muhim edi. Psixolingvistik tadqiqotchilarning matnni idrok

etish va hosil qilish jarayonlarining kalit soʻzlar bilan taʼminlanganligining yaxlitlik, izchillik kabi xususiyatlari va nisbiy tugallanganlikning maqsadli zaruriyatni anglash bilan bogʻliq kashfiyoti borasidagi muhim xulosalari ahamiyatlidir.

Oʻquvchilarning nutqini rivojlantirish va kelajakda matn yaratish faoliyatini shakllantirish metodining rivojida mashhur psixolingvistlarning nutqni hosil qilish va idrok etish jarayoni, muloqotni taʼminlovchi inson faoliyati turi sifatidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda matn bilan ishlashning yagona umumiy mexanizmi asosida matnni yaratish va idrok etish jarayoni matnni muallif pozitsiyasidan ham, oʻquvchi pozitsiyasidan ham qabul qilish hamda talqin etish xususiyatlari aniqlandi. Mazkur jarayon matnni talqin etishda tegishli yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asos boʻldi. Keyinchalik nutq psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlar ogʻzaki va yozma nutq qurilishining xususiyatlari, matn yaratish mexanizmlarini oʻqitish metodikasiga nisbatan yondashuvlarni ishlab chiqishning nazariy va ilmiy-uslubiy asoslariga aylandi.

XX asrning 60-70-yillaridan nutqni rivojlantirish metodologiyasi ona tili sohasini oʻqitish usullaridan biri sifatida ajralib chiqdi. Oʻquvchilarga mulohazalarini nutq orqali ifoda etish imkonini beradigan salohiyati, toʻgʻri yoza olishi va ona tilini oʻqitishning asosiy maqsadlariga erishishni taʼminlaydigan jarayonlar boʻlib, ular oʻqituvchidan mashgʻulotlarni turli shakllarda tashkil etishni talab qiladi. Ayni shu davrga kelib tadqiqot predmeti va nutqni rivojlantirish usuli tushunchalari tizimi aniqlanshtirildi.

XX asrning 60-70-yillarida T.V.Napolnova, M.M.Razumovskaya va boshqa bir qancha metodist olimlar tomonidan oʻquvchilarning nutqini rivojlantirishda tayanch nutqiy tushunchalar tizimi matnlarni idrok etish, talqin qilish va yaratishga asoslangan metodika sifatida shakllantirildi va nutqiy tizim tushunchasi koʻnikma va malakalarini ongli ravishda shakllantirishga asos solindi. 1970-1980-yillarda metodistlar maktab taʼlimida tilning kommunikativ funksiyalarini amalga oshirish zarurati gʻoyasini ilgari surdilar. Bu davrdagi ona tilini oʻrganishga nisbatan yondashuvlar koʻplab olimlarning diqqat markazida boʻldi. Ular orasidan quyidagi xususiyatlarni ajratib koʻrsatish mumkin:

-o'quvchilarga matnni kuzatish (tadqiqot) uchun maxsus topshiriqlar qo'yish;
-muallif nuqtai nazaridan til vositalari ishlatilishi bo'yicha matn tahlilini talab qiladigan vaziyatlar yaratish;

-o'quvchilarning til amaliyotiga nisbatan e'tiborini kuchaytirish.

Mustaqillikning dastlabki yillarida o'quvchilarni ko'p qirrali o'qitish, shuningdek, shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda alohida o'rin tutadigan til bilimi maktab o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni bilan uzviy bog'lanishi kerakligi ko'zda tutila boshlandi. Bu davrda matn yaratish modellari T.U.Ziyodova tomonidan chuqur va har tomonlama o'rganildi.

1) fanning konseptual doirasiga nafaqat tilshunoslik bilimlarini, balki nutq tushunchalarini ham kiritish;

2) ona tili o'qitish mazmunini o'quvchilarning ichki va tashqi nutqini rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirish;

3) ona tilining tizimli bosqichlariga nisbatan har xil turdagi nutq matnlarining xususiyatlarini maqsadli tahlil qilish.

Keyinchalik aynan mana shu jihatlar XXI asr hujjatlarining (standart dasturlar, fan standarti va boshqalar) asosini tashkil etdi. Nutqning turli funksional va semantik turlari: matnlarni tushunish, talqin qilish va sharhlash (hikoya, tavsif, mulohaza), matnni og'zaki va yozma shaklda qayta ishlashni amalga oshirish, uning ma'nosini uzatish, shuningdek, uni mavzuning semantik yaxlitligi birligi sifatida tavsiflash qobiliyati, bayonning izchilligi va ifodali tasvirga ega bo'lish, nutq uslublarining barcha turlarini ajrata olish qobiliyati kabi barcha fanlararo natijalar umumlashtirildi. Dasturlarda o'quvchilar nutqini rivojlantirishga, matnlar bilan turli ko'rinishlarda ishlashga katta e'tibor berildi. Dasturlarda turli tipdagi matnlar yaratishga o'rgatish ishlari ham ko'zda tutilgan bo'lib, shu bilan birga dastur mualliflari tomonidan e'lon qilingan o'quv vazifalari barcha darsliklarda berilmasligi va o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan ta'limga yondashuvlar o'quvchilarning matn yaratish faoliyatiga har doim ham yuqori natijalarni bermasligi nazarda tutildi va dasturlar shunga muvofiq takomillashtirildi.

Umuman, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning matn yaratish

kompetensiyalarini qaror toptirish borasidagi ilmiy-metodik izlanishlar tadriji zamonaviy ta'limda o'quvchilarning matn bilan ishlash faolligini shakllantirishga yangi yondashuvlarni tatbiq etish lozimligini ko'rsatmoqda. Fikrimizcha, matn yaratishga doir o'quv materiallarining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti tahlili bu boradagi muammolarni atroflicha o'rganish, ularning yechimini topish imkoniyatlarini kengaytiradi.

1.2-§. O'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari

So'z va sarkardalik ilmining benazir bilimdoni bo'lgan Bobur o'z farzandlarining ham adib va arbob sifatidagi kamolini ko'zlab, ularning nutq san'atini egallashini, o'ta savodli inshoga ega bo'lishini eng jiddiy vazifa deb hisoblagan. Nutqning sodda, ravon va aniq bo'lishiga, nutqiy malakaning yuqori bo'lishi lozimligiga alohida e'tibor berganligi, uning xoh nazmiy bo'lsin, xoh nasriy bo'lsin, barcha asarlarida nafis nutqning nodir namunalarini ko'rish mumkin. Demak, avvalo, nutq ishontira olishdir. Nutq asoslar va dalillar bilan isbotlanishi lozim va bu qobiliyatlar o'quvchilarda ham shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Ona tili va adabiyot fanining asosiy maqsadi – o'quvchi nutqi madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish orqali bu maqsadlarga erishish mumkin.

XX asrning 60-yillaridan boshlab ona tili o'qitish dasturi va metodikasi mazmuniga nutqni rivojlantirish bilan bog'liq tuzatish va qo'shimchalar kiritildi. Bugungi voqelik o'quvchilarning nutqini rivojlantirish uchun matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni maqsadli rivojlantirish jarayoni sifatida qarashni talab qiladi. Shu sababli asosiy e'tibor, nutq fikr bayonini ifodalashga bo'ysundirilib, yaratilgan matn o'quvchi idrokini hisobga olishga qaratilishi kerak. Bu yo'nalish zamonaviy ta'limda nafaqat fan rivojiga, balki fanlararo integratsiya rivojini ta'minlovchi bilim va kommunikativ ta'lim samaradorligiga mo'ljallangan. Nafaqat ona tili darslarida, balki adabiyot

darslarida ham o'quvchilarning idrokini oshirish maqsadida matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishga e'tiborni kuchaytirish zarur.

Amaliy faoliyatda o'quvchining tafakkuri va nutqi shakllanadi. Sabab-oqibat aloqalari o'quvchining ongida til vositasi orqali yuzaga keladi va nutq jarayonida amalga oshiriladigan kommunikativ faoliyatni voqelik bilan umumlashtiradi. Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- matnni idrok etish;
- matnni talqin qilish;
- matnni yaratish.

Ushbu vazifalar o'quvchiga matn mohiyatiga chuqurroq kirishga yordam beradi.

Inson fikrlash jarayonida voqelik va hodisalarni o'z maxsus belgilari, ular orasidagi bog'lanishlar bilan, ya'ni tavsiflab, hikoya qilib va mulohaza yuritib ifodalashi mumkin. Ushbu birliklar o'quvchilar diqqatini faqat matn nima haqidaligiga emas, balki nutq mavzusi haqida fikrlashga undaydi. Matnning ma'naviy qismlari tahlilida esa o'quvchi muallif matnni nima maqsadda yaratgan va qanday motivga asoslanganligini inobatga olsa, yaratadigan matnlarida g'oyani shakllantirish va amalga oshirish uchun o'z motivini va maqsadini aniqlashtirishga erishadi. Matn turlari bilan ishlash maktab o'quvchilari uchun eng maqsadli usul, chunki u matn xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettiradi. Matnning asosiy belgilarida nimani aytish rejasi va qanday ifoda etish rejasi bo'lib, bu belgilar tipik xususiyatga ega ma'no va ularni yetkazib berish uchun shakl bilan nutq uslubida ham aks etadi. Boshqa matn birliklarida, masalan xatboshi, sintaktik butunlik yoki frazeologik birliklar bunday qirrali xususiyatga ega emas. Sintaktik yaxlitlik hech qanday tipik ma'nosi, lingvistik shakli bo'lmagan xatboshi sifatida xarakterlanadi. Matn turlaridagi mazmun va ifoda rejasi matn bilan ishlashni o'rganishda ushbu konsepsiyaga tayanishga imkon beradi.

Matn bilan ishlash faoliyati motiv bilan bog'lanishi zarur, chunki motivsiz matn yaralmaydi. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish og'zaki nutqni boshqarish va rivojlantirishga qaraganda ancha murakkabroq jarayon hisoblanadi. Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion

texnologiyalar, ichki chuqur rag‘batga asoslangan, matnni qurish qonuniyatlari, mavzuni ochib berish zaruriyati hamda asosiy g‘oyani to‘liq shaklda ifodalash haqidagi barqaror fikrlarni umumlashtirish zarur. Matn tahliliga esa tanqidiy baholash nuqtayi nazaridan yondashib, namunali matn yaratishga intilish talab etiladi.

Motivlar asosida ishlash, matn tahlili va matn yaratishdagi maqsadlarni to‘g‘ri qo‘yish o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi va samaradorlikni ta‘minlaydi. Motiv matn bilan ishlashda kommunikativ faoliyatning yetakchi mavqeyini egallaydi, shuning uchun uni matn bilan ishlash usullarini o‘zgartirishda aloqa yaratish ehtiyoji va sharoitlarining o‘zgarishi nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish lozim. Matn bilan ishlashni umumiy faoliyat nazariyasi va nutq faoliyati nazariyasiga nisbatan ko‘rib chiqish uning alohida o‘ziga xosligini ochib beradi, bu esa matn yaratish harakatlarini o‘zlashtirishda yakuniy maqsadga erishish yo‘lini o‘qitish innovatsion texnologiyalarini aniqlashtirishga imkon beradi.

Har qanday texnologiyalar o‘z ichiga yo‘naltirish, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish bosqichlarini oladi. Idrok etish va matndagi muallif niyatini talqin qilish hamda nutq jarayonida o‘z niyatini yaxlit, izchil nisbiy to‘liq izohlash subyektning shaxs sifatidagi boshlanishini shakllantiradi. O‘quvchi har qanday matnni idrok etish va talqin qilishda, matnning tashqi ma‘nosidan ichki ma‘nosiga o‘ta olsa, matn yaratish jarayonida nutqiy muloqotning teng huquqli ishtirokchisi sifatida o‘z qobiliyatlarini lingvistik shaxs sifatida amalga oshira oladi.

Muloqotda tez va to‘g‘ri harakat qila olish, nutqni to‘g‘ri rejalashtirish, muloqot akti mazmunini to‘g‘ri tanlash, ushbu mazmunni yetkazish uchun adekvat vositalarni topish ko‘nikmalari shakllantirilishi lozim. Matnni baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

- mavzu va topshiriqning mazmunga muvofiqligi;
- mantiqiylik;
- izchillik;
- uzviylik;
- tugallanganlik;

- qabul qiluvchining kutganiga, uning manfaatlariga mos kelish.

N.I.Jinkin o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarida shunday xulosaga keladi: "Bu yo'nalishdagi matnni nazorat qilishda, faqat bitta vosita bor-uni "boshqalarning ko'zlari bilan" qayta o'qish, kitobxon nuqtayi nazaridan yondashish, predmet bayoni haqida hech narsa bilmagandek, faqat yozma matnga tayangan holda qayta tushunish" [118, 317]. Bu xulosa o'quvchining tahliliy va ijodiy matn yaratish kompetensiyasi o'zaro bog'liq shakllanishi zarurligini taqozo etadi va bu jarayonning barcha bosqichlarida mashq qilish reflekslarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish zarur.

O'quvchilar bayonidagi kamchilik tufayli nutqning kommunikativligi tabiiyligini yo'qotadi va tilshunos, psixologlar bu qiyinchiliklarni yengish uchun o'quvchilarning muloqotga bo'lgan ehtiyojini oshirish kerakligini ta'kidlaydi. "Nutqning tabiiy aloqasi" paydo bo'lishini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantiradigan tegishli innovatsion texnologiyalardan foydalanib, tahliliy, ijodiy va klaster faoliyat jarayonida erishish mumkin.

Motiv ta'sirida yuzaga kelgan bayon g'oyasi, o'quvchi tajribasi va fikrlash qobiliyatlariga tayanishi sababli, o'quvchilarning intellektual faoliyatida ong va hissiy soha paydo bo'lishi va rivojlanishiga ko'maklashuvchi tahliliy, ijodiy va klaster matn bilan ishlash faoliyatini o'zaro bog'liq holda shakllantirish kommunikativ-kognitiv jarayonning asosi sifatida qaraladi.

G'oya konsepsiyasi mashhur xorijiy psixologlar, psixolingvistlar, neyropsixologlarning bayon yaratish nazariyasini ishlab chiqish ishlarida markaziy qismlardan biridir. A.R.Luriya "g'oya" atamasini nutqiy bayon motivi paydo bo'lishidan keyin shakllanishi lozimligidan kelib chiqib: "Keyingi jarayon fikrning paydo bo'lishi yoki kelajakda bu mazmunning umumiy sxemasi bayonida mujassamlanishi kerak", - deydi. [160. 61] "Butun matn g'oyasi" va "g'oyani amalga oshirib, matn yaratish" tushunchasini psixolingvistikaga N.I.Jinkin kiritdi. N.I.Jinkinining tadqiqotlariga ko'ra, "Agar matnning semantikasi matn yozishni boshlashdan ancha oldin ta'minlanmagan bo'lsa, birinchi jumlani yozishdan,

noaniqlik, maqsadsizlik boshlanadi, tushunmovchilik yoki ma'nosizlik kelib chiqadi" [118. 168, 169].

O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida, avvalo, tahliliy faoliyat obyekti bo'lgan muallif matnlari bilan ishlanadi, buning natijasida ularda mantiqiy va ijodiy faollik, o'ziga nisbatan ishonch hissi kuchayadi.

Bayonning ichki dasturlash bosqichlari tashqi rejadagi leksik va grammatik joylashuv va amalga oshirilish bosqichidan oldin keladi. Barcha turdagi bayon natijasi ularni shakllantirish texnologiyalarini to'g'ri tanlashga bog'liq. Tahliliy jarayon asosida mustaqil ravishda matn yaratishning maqsadli yo'li taqlid uchun birinchi bosqichdagi namunani to'g'ri tanlashdan boshlanadi. O'quvchilarning ijodiy matn yaratish kompetensiyasining rivojlanishida matnni original his qilish muhim ahamiyatga ega. Agar g'oyadan bevosita oldingi kommunikativ niyatga alohida e'tibor berilsa, o'quvchi faqat mavzuni yoritishni emas, bayonning umumiy mazmun va mavzusidan yaxshi xabardor bo'lib yozadi, keyin umumiy g'oyani yaratadi va rivojlantiradi, natijada, bir vaqtning o'zida ham berilgan mavzuni ochishga, ham mavzu bo'yicha nima deyish kerakligini dolzarblashtirishga erishadi. Mashhur psixolingvistlar matn yaratishning asosi motiv ekanligiga va uning ichki nutqda g'oya shakllanishiga turtki berishiga, "nima haqida yoritish kerak", "nimani yoritish kerak", "qanday yoritish kerak" degan savollarga javob talab qiladigan bayonning semantik dasturida va keyin tashqi nutqda paydo bo'lishiga qo'shiladi. Avvalo, motivatsion komponentni amalga oshirish idrok natijasi, matnni talqin qilish va muallifning niyatidan xabardor bo'lish bilan qaror topadi (1.1 rasm).



1.1-rasm. Motivatsion komponentni amalga oshirish

Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonidagi katta qiyinchiliklar matn yaratuvchisiga suhbatdosh tasavvuri bilan bogʻliq, bu yozuvchiga matn kimga qaratilgan boʻlsa, ular haqida tasavvur talab qiladi. Boy tasavvurga ega kitobxon qobiliyati va vaziyatga koʻra muloqot qobiliyati shakllansa, oʻquvchining tafakkurini rivojlantiradi, fikr oqimining batafsil ifodasi uchun malaka va koʻnikmalarni oʻzlashtirish mumkin. Bu oʻquvchini bir vaqtning oʻzida ham “yozuvchi”, ham “kitobxon” sifatida shakllantiradi va matndagi ifodalarni ikkinchi shaxs nuqtayi nazaridan kuzatib, muallif maqsadini tushuna oladigan oʻquvchini tayyorlaydi.

Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda maxsus mazmun va ish usullarini ikki qirrali deb hisoblash mumkin. Ushbu jarayon jiddiy ilmiy-didaktik asosli bazani yaratish, oʻquvchilarga turli xil matn bilan ishlash turlarini oʻzaro bogʻliq va uzviy munosabatlarda oʻrgatishdan iborat. Zamonaviy taʼlim ehtiyojlarida, muloqotning semiosotsial va psixologik nazariyasi oldinga chiqishi, matn ham nutq sifatida, ham mazmuniy-semantik blokka nisbatan yuqori tartibli murakkab belgi sifatida koʻrila boshlaydi. Bunda matn nima haqida, qanday aytilgan, nimaga qaratilganligini emas, balki qanday maqsadda yaratilganligi, muallifning kommunikativ niyati va uni qanday amalga oshirishi eʼtiborga olinadi. Shuningdek, matnning asosiy mazmunini oʻquvchi qanchalik adekvat idrok etganligi va talqin

qilganligi inobatga olinadi. Muallif matnni yaratishda o'z shaxsiy farazlari mazmunini saqlagan holda kitobxonning fikrini hisobga olishni maqsad qiladi.

Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida, motiv yaratish harakatlarining turli darajadagi murakkabliklari o'qituvchi tomonidan o'ylab topiladi. Shuningdek, bir qator omillarni, jumladan, o'quvchilarning nutqini rivojlantirish va psixofiziologik imkoniyatlar hamda o'quv vaziyatlarini hisobga olgan holda matn bilan ishlash jarayoni amalga oshiriladi. Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari, o'qituvchi tomonidan tizimli ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Matnni rejalashtirish psixolingvistika va pedagogikada doimo asosiy diqqat markazda bo'lgan. Bu bosqichda o'quvchilarga ta'limiy hamkorlikda yoki mustaqil ravishda g'oya ishlab chiqish uchun vaziyat yaratiladi, bu avvalo, reja shaklida amalga oshiriladi. Xorijiy psixologlar S.Grexem va D.Perinlar matn yaratishda dastlabki samarali yondashuv taxminiy reja tuzish va keyinchalik matnni tekshirish, qayta ishlab chiqishdir, degan xulosaga kelgan. [103. 445– 476; 202, b. 68].

Yozish jarayonida yangi tug'ilgan fikr ko'pincha rejada ko'zlanmaydi, dastlab taxminiy rejada asosiy fikrni rivojlantirish yo'llari ko'rsatiladi va uni ifodalash yondashuvlari shakllanishi va matn elementlari o'rtasidagi munosabatlar biridan ikkinchisiga o'tish izchilligini ta'minlashi zarur. Fikrlash bosqichi rejalashtirish bosqichiga o'rnatiladi va ijodiy faoliyatning imkoniyatlarini kengaytirish uchun matnni yaratish jarayonida ham rejani qayta qurish talab etiladi. Xatboshilarni kengaytirish yoki qisqartirish, rejaning tartibini o'zgartirish yoki ba'zi bandlarini olib tashlash shular jumlasidandir.

Rejaga muvofiq fikr bayonini amalga oshirishda o'quvchilar asosiy g'oyani aniqlabgina qolmay, balki ularni matn birliklari doirasida tahlil qiladi, bu esa matn tarkibini tashkil etuvchi qismlarni birlashtiradi. Bu yondashuvlar hamkorlikda ishlashni, mustaqillikni va asosiy fikrni ifodalash uchun zarur bo'lgan kalit so'zlar va iboralardan foydalanishni talab qiladi.

O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish modelining vazifani taqdim etish va tashkil etish jarayoni quyidagilarga qaratilmog'i lozim:

motivatsion komponentni amalga oshirish;
idrok etish va matn talqini;
muallifning niyatidan xabardor bo'lish.

Bizning farazimizcha, o'z g'oyasini bayon etishga intilayotgan muallifning matn yaratishga qaratilgan harakatlar majmui motiv to'g'ri tanlansa, maqsad to'g'ri belgilansa, g'oya aniqlashtirilsa va fikr izchilligi ta'minlansa, samarali faoliyatni shakllantirishga yordam beradi.

O'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati matnni muvaffaqiyatli shakllantirishning asosiy omillaridan hisoblangan. Zamonaviy ta'lim sharoitida universal o'zlashtirish ustuvorlik etgan jarayonda, shu jumladan, ta'limiy jarayonlarda ma'lumotlar oqimining ko'payishi tanqidiy yondashuvni talab qiladi va olingan ma'lumotlarning ishonchliligini baholash alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Bunday yondashuvlarda o'quvchilar yaratayotgan matnlarida egallagan ko'nikma va qobiliyatlarga tayanadilar va matnni baholashning muhim mezonlari, fikr ifodasining vazifaga va mavzuga mosligi, shuningdek, mantiqiylik, izchillik, ketma-ketlik va tugallanganlik talablari, ya'ni kitobxonning kutganlariga muvofiqligi inobatga olinadi. Matnni bunday baholash o'quvchilarning kitobxonlik malakalariga tayangan holda kechadi, matnni baholash kitobxon pozitsiyasidan amalga oshiriladi. Bular zamonaviy axborot davrini hisobga olib, o'quvchilar egallashlari zarur bo'ladigan kommunikativ-kognitiv jarayon asoslari tahliliy, ijodiy matn yaratish va klaster matn yaratish kompetensiyalarining o'zaro bog'liqlikdagi kuchli aloqasini yana bir bor tasdiqlaydi.

Matnning qismlari tahlilida, bir tomondan, g'oyaning keyingi rivojiga yo'llovchi fursat, fikrlar izchilligi, ikkinchi tomondan, matnning bosh g'oyasi va tuzilishini talab qiluvchi tanqidiy baho o'z aksini topishi kerak. Matnni tahlil qilish va tanqidiy baholash bosqichi g'oyani amalga oshirish bosqichidan boshlanishi maqsadga muvofiq.

Matn bilan ishlashga o'rgatish kommunikativ va kognitiv faoliyat mexanizmlari rivojlanishi uchun optimal sharoitlar yaratadi. Jamiyatda o'zaro munosabatlarga

tayyor, muloqotga qodir o'quvchi nutq odobini o'zlashtirib, uni matn darajasiga yetkaza oladi.

Shaxsning har tomonlama va to'liq rivojlanishi faqat qobiliyatlar qaror topishiga asoslangan o'z faoliyati jarayonida sodir bo'ladi. Shuni hisobga olish kerakki, rivojlanishni maqsadga muvofiqlik, to'g'ri yondashish, uzluksizlik kabi xususiyatlar amalga oshiradi va rivojlanish darajasi nafaqat tezkorlik va davomiylik, balki ongli faoliyat bilan ham belgilanadi. "Agar menda qandaydir mahorat bo'lsa va u menda mavjudligini bilmasam, men uni beixtiyor ishlataman. Ongli qilinadigan ish, beixtiyor amalga oshiriladi, tegishli vaziyat yo'qligida bajarish juda qiyin" [77. 383], deb yozgan edi L.S.Vigotskiy. Shuningdek u shaxsiy harakatlarni boshqarish refleksi va ongli ko'nikmalarni egallash zarurligini ta'kidlaydi. Ongli harakat esa faqat amaliy jarayonda shakllanadi, chunki o'quvchi nutqida ma'lum qobiliyatlar mavjud, lekin u bularga ega ekanligini bilmasa ongli, maqsadli, ixtiyoriy ravishda bajara olmaydi va o'z bilganlaridan ketma-ketlikda foydalanishga qodir emas. U maktabda bajaradigan ishini ongli tushunib, o'z bilimlaridan erkin, ketma-ketlikda foydalana olishga o'rganadi. Uning malakasi beixtiyor, ongsiz harakatdan maqsadli, rejali, ongliga o'tadi. Onglilik matn yaratish jarayonida harakat maqsadini tushunishni, har bir xususiyatiga nisbatan qarorlar qabul qilishni bildiradi.

Matnni idrok etish jarayonidagi harakatlar o'quvchilarning o'z his-tuyg'ulari aks etishiga va fikrlash qobiliyatiga asoslanishi va bu fikr, tuyg'ularning paydo bo'lish sabablarini tahlil qilish jarayoni bilan bog'laydi. Fikrlash qobiliyatlari o'z mulohazalarini yaratish istagini uyg'otadigan kuchli omillardan biridir, chunki har bir mulohaza akti harakatlarni ongli his qilish, tushunish va insonning nafaqat tuyg'ularini baholash, balki fikrlash hamda rejali faoliyatidir. Refleksiya matn faoliyati paydo bo'lishida onglilikni ta'minlaydi va matn bilan ishlashda o'quvchining o'zini muallif pozitsiyasida tasavvur qilish qobiliyatini shakllantiradi va shu tufayli o'quvchida muloqot jarayonida tinglovchiga yetkazib bera oladigan o'z fikrlari shakllanadi. Refleksiya tajribasining ko'payishi ta'limda boshqa sharoitlar qatori matn bilan ishlashning mazmunini, maqsadini, tugal qimmatini tushunishga qodir qiladi. Bu tushuncha mustaqil matn yaratish, o'quvchilarning o'z fikrini bayon qilishda ichki

ishtiyoq uygʻotuvchi mustahkam poydevor, tinglovchi pozitsiyasini tushunish kabi ijodiy faoliyat va yuqori natijalarga intilishni shakllantirish uchun zarur. Oʻquvchilarda kommunikativ kompetensiya shakllansa, har qanday muloqot oʻquvchinig oʻz-oʻzini anglashida ustuvorlik qiladi. Taʼlim jarayonining samaradorligi quyidagilarga bevosita bogʻliq:

- hissiy idrok;
- mantiqiy tushunish;
- mazmunli idrok;
- amaliy qoʻllanilish tabiati.

Matn bilan ishlash jarayoni idrok etilgan matn mazmuniga oʻquvchilarning hissiy munosabati, matn mazmunining rejaga muvofiq tanlanishi, ushbu mazmun tarkibining qurilishi va oʻz ifoda faoliyati natijasi bilan birga kechadigan jarayondir. Matn bilan ishlash faoliyatida oʻquvchilar obyektning aniq tavsifi, uning umumiy xususiyatlarini aniqlash, muallif tomonidan tanlangan tafsilotlar va ularning xususiyatlariga mualliflik munosabatlari, matnning rasmiy kompozitsion rejasini belgilash orqali matnning tarkibiy va semantik rejasi boʻyicha matn harakatlari va operatsiyalarni ixtiyoriy, maqsadli va ongli ravishda amalga oshirishadi.

Oʻz rejalarini amalga oshirishda oʻquvchilar matnli harakatlar orqali gʻoyadan uni amalga oshirishgacha matn mavzusini aniqlash, asosiy fikrni shakllantirish va yaratiladigan matnning tipologik tuzilishini aniqlashda izchil yoʻlni bajarishlari kerak. Bu jarayonlarning muvaffaqiyati, oʻquvchilar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning har bir bosqichida oʻtkaziladigan ongli harakatlarning uzluksizligi bilan taʼminlanadi. Onglilik-matnlarni talqin qilish va yaratish jarayonida, shuningdek, oʻz-oʻzini nazorat qilish orqali matn bilan ishlash turlari va operatsiyalarni tanlash va amalga oshirish bilan bogʻliq hayotiy, kommunikativ, taʼlim tajribasi, hissiyotlarni jalb qilish imkoniyatini beruvchi matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning eng muhim mexanizmidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, refleksiyaning taʼlimdagi yoyilmasi oʻqitishning didaktik vositalari, jumladan, maktab darsliklari va innovatsion texnologiyalarni qoʻllash bilan bogʻliq holda rivojlanadi.

Oʻquv materiallarining oʻquvchi tomonidan samarali oʻzlashtirilishi takror bilan

ham bog‘liq. Zero, “Bilimning onasi takror”dir. Ma’lumki, psixologik nuqtayi nazardan inson xotirasi, jumladan, o‘quvchi xotirasi ham muayyan turlarga bo‘linadi. Ma’lumotlarni bir marta o‘qish oddiy xotirada vaqtincha saqlanadi va qisqa muddatda unutiladi. Agar uzluksiz takrorlansa, u doimiy xotiraga o‘tadi. E.G‘oziev ta’kidlagan G.Ebbingauzning o‘quvchi eslab qolishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar tarkibi, miqdori va sifati haqida olgan xulosalarini shu o‘rinda keltirish o‘rinli. U hech qanday ma’no anglatmaydigan 38 ta bo‘g‘inni o‘quvchi 55 marta takrorlaganda eslab qolganini; 38 – 40 ta so‘zdan iborat materialni eslab qolish uchun esa, 6-7 marta takrorlash kifoya qilganni aniqlagan[279. 221-222].

O‘quvchining ijtimoiy hayotda kompetentligining to‘g‘ri amalga oshishida xizmat qila oladigan zaruriy ma’lumotlarni uning uzoq muddatli xotirasiga o‘tkazish uchun o‘sha ma’lumotlarni ko‘p marta takrorlatish va xotirasida qayta tiklab turish lozim. Shu o‘rinda aytish mumkinki, matn bilan ishlash jarayonida aniqlagan bosh g‘oyani o‘quvchi o‘zi yaratadigan yangi matnda tahliliy material sifatida foydalansa xotirada yaxshi saqlanadi. Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda sermazmun, purhikmat matnlardan ko‘proq foydalanilsa, o‘quvchi ularni bir-ikki takrorlash bilan uzoq muddatli xotirasiga “yozib qo‘yadi”. Biror jismoniy harakat avtomatlashish darajasiga yetishi uchun qancha uzluksiz mashq zarur bo‘lsa, muayyan nutqiy malakaning shakllanishiga ham shuncha mashq, harakat kerak bo‘ladi. Buning uchun matn yaratish jarayonini uzluksiz tizimlashtirish hamda “reminissensiya” hodisasidan unumli foydalanish talab etiladi. “Reminissensiya” hodisasida o‘quvchilarga o‘qigan asar matnlaridan hamda matn bilan ishlashda yoqtirgan yoki ta’sirlangan o‘rinlarini xotirada saqlab, yaratayotgan matnda aynan keltirish talab etiladi[219. 154].

Bunday vaziyatlarda amalda qo‘llanilayotgan topshiriqlar bilan qancha ko‘p ishlansa ham, kutilgan natijaga erishish qiyin bo‘ladi. Ba’zi o‘quvchilarning so‘z boyligi kamligidan, kerakli so‘zlarni o‘z vaqtida topolmay qiynaladi, bunday muammolardan kelib chiqqan holda, o‘qitishni o‘qish savodxonliklari ustida ishlashga qaratish talab etiladi. Aks holda, ayrim o‘quvchilar balog‘atga yetganda ham fikrini yetkazib bera olmaydigan bo‘lib qolishadi. Bu kabi “nutqiy kemtiklik” turli davralarda

o'quvchiga bir umr xalaqit berishi mumkin. O'qituvchi o'z vaqtida nutqi rivojlanmagan o'quvchilarga alohida e'tibor berib, nutq o'stirish ustida muntazam ishlasa, matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirsa, ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosini topgan hisoblanadi.

II BOB. MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

2.1-§. Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda ona tili va adabiyot fanlari mazmuniga qo'yiladigan talablar: joriy tahlil


Ta'lim sohasida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, shubhasiz, jamiyat taraqqiyoti va shu jamiyatda kamol topayotgan yoshlarning kelajagi bilan bevosita aloqador jarayonlar bilan bog'liq. Milliy ta'lim tizimimizning keyingi chorak asrdagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab ijobiy ishlar va kerakli tadbirlar amalga oshirilganining guvohi bo'lamiz. Zero, sohibqiron Amir Temur "O'z o'rnida qilingan tadbir, behuda sarflangan umr, samarasiz sa'y-harakatlarning oldini oladi hamda bajarilishi shart bo'lgan tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so'ng qat'iylik, sabr, chidamlilik, sog'lig'u sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur" [248], deb aytgan. Zamon talabi tajribali, ishbilarmon, tadbirkor avlodni tayyorlash ekan, buni Amir Temurning davlat uchun har jihatdan yetuk insonlarning ahamiyati haqidagi fikrlaridan ham bilish mumkin: "Tajribamdan ko'rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi, ming kishiga ish buyuradi" [248].

Keyingi yillarda oliy pedagogik ta'limda "4+2" tizimi asosida amaliyot va nazariyaning qo'shib olib borilishining yo'lga qo'yilishi milliy pedagogikamizning eng katta yutuqlaridan biri deya e'tirof etishimiz mumkin. Kelajakda yetuk va tajribali kadrlar tayyorlash maqsadidagi bunday tadbirlar integratsiyalashgan ta'limning klaster modeliga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi. Ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan ushbu sa'y-harakatlarda kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirish, xususan, tizimga innovatsiyalarni kiritish, sinalgan tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim-fan-ishlab chiqarish uchligi o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud. Barcha zamonlarda ham ta'lim va tarbiyaning sifat va samaradorligi juda ko'p omillarga bog'liq bo'lgan. Inson kamoloti va tafakkuri, avvalo, uning fikrlashidagi mantiq hamda

nutqiy salohiyati bilan chambarchas bog‘liq jarayon. Buning uchun, avvalo, ajdodlarimiz ta’kidlaganlaridek, o‘sib kelayotgan avlodning fiklash salohiyatini kengaytirish, nutqini rivojlantirish asosiy mezondir.

Ayni zamonda, ta’lim amaliyotini integratsiyalashning shakllarida ularning barchasi uchun umumiy bo‘lgan jihatlar ham mavjud. Masalan, “o‘quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi” o‘quvchining matn yaratish faoliyatida adabiyotshunoslik, pedagogika, tarix, onomastika, etnografiya, psixologiya va boshqa fanlar orqali o‘zlashtirgan bilimlarini badiiy asarlar tahlili jarayonida umumlashtirgan holda qo‘llay bilish nazarda tutiladi. Shu sababli, o‘quvchilar faoliyatini ijtimoiy hayot bilan hamkorliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi, chunki bu tizimlar integratsiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Har bir o‘quvchi o‘ziga yarasha qobiliyat, iqtidor va imkoniyatlarga ega va bular uning qiziqishlari asosida takomillashadi. Bunday individual xususiyatlar, asosan, maktab jarayonida namoyon bo‘ladi, ba’zan o‘quvchining o‘zi ham oldin sezmagan qobiliyatlarini, amaliyot jarayonida sezib qoladilar. O‘quvchilarni olimlar, shoir va yozuvchilar, radio-televideeniye boshlovchilari va suxandonlari, jurnalistlar bilan hamkorlik qilishi, bu sohalarining xususiyatlaridan xabardor bo‘lishi “mutaxassislar, ijodkorlar va o‘quvchilarning ijodiy jamoasi integratsiyasi”ni yuzaga keltiradi. Tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va olib boriladigan ishlarga sohibqiron Amir Temurning “kengash egalari birlik, ittifoqlik bilan so‘zda sobit, ishda chidamli bo‘lishlari shartdir”[248] degan fikrlari nuqtayi nazaridan qaralmog‘i zarur bo‘ladi. Zamonaviy ta’lim maqsad va vazifalarini o‘quvchilarning maqsad va vazifalariga hamda ularning qiziqishlariga moslashtira bilishi taqozo etiladi.

O‘qitish jarayonida ona tili, adabiyot, tarix, pedagogika, san’atshunoslik, onomastika, etnografiya fanlari bo‘yicha bilimlari bilan bevosita; psixologiya, tabiatshunoslik, biologiya va boshqa bir qator fanlar bilan esa bilvosita integratsiyalashadi. Berilgan ma’lumotlar integratsion klaster usulida barcha qirralarini ochish, bilim berishda samaradorlikka olib keladi. O‘quvchilarda loqaydlik illatining oldi olinib, zukkolik, hayotni sevis, bilimga chanqoqlik oshadi.



2.1-rasm. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda subyekt-obyekt munosabatlari

Integratsiyaga asoslangan tizimli va mantiqiy texnologiyalar. Bu texnologiyalar “oddiydan murakkabga”, “nazariydan amaliyga” tizimli yondashuv va prinsiplariga asoslanadi. Tizimli yondashuv texnologiyasiga muvofiq har qanday o'rganilayotgan obyekt “tizim” tushunchasi orqali ko'rib chiqiladi. Har bir tizim o'ziga xos tuzilishga ega va o'zaro bog'liq elementlardan iborat. Bu ta'limning barcha darajalarida o'quv materialining uzluksizligi va mantiqiy izchilligini ta'minlashga imkon beradi.

Tizim (yunoncha - qismdan tashkil topgan, bog'langan) - elementlar to'plami, o'zaro bir-biri bilan munosabat va aloqada ma'lum bir butunlikni, birlikni tashkil qilish.

Zamonaviy o'qitishda motivatsiya uyg'otish, bilim olish ehtiyojini yaratish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir.

O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda shaxsga yo'nalganlik ta'lim texnologiyasidan real ta'limiy sharoitda foydalanish asosida o'quv mashg'ulotlari metodikasini takomillashtirish asos qilib berilgan.

Tadqiqotda ona tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari yoritildi. Ona tili fanini o'qitish jarayonida DTS tomonidan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, mustaqil va mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda

o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish, ijodiy fikrlash uchun xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida ilmiy jihatdan asoslandi.

Quyidagi tamoyillarga amal qilish, kompetensiyalarni shakllantirishga yordam berishi talab etiladi:

- ta'lim-tarbiya va kompetentlikning uyg'unligi;
- onglilik va kognitivlikni birgalikda olib borish;
- bosqichlilik va tizimlilik;
- turli to'garaklar, fakultativ kurslar va o'quv dasturini o'quvchilarning muloqotini ta'minlashuviga moslashtirish;
- nutq turlari va fanlararo integratsiya;
- ijodkor o'quvchilarning ijod kunlari va haftaliklarini tashkil etish va unda olimpiadalar, bellashuvlar, tadbirlar tashkil etish;
- ijodkor o'quvchi portfoliosini yaratish;
- uzviylik va uzluksizlikka erishish, ota-onalar bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish;
- nazariyani amaliyot bilan bog'lash;
- o'qituvchining malakasini orttirish.

Mazkur tamoyillar ta'lim oluvchilarda kommunikativ-kognitiv o'rganish istagini shakllantiradi hamda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- kommunikativ kompetentlik;
- ongli o'quv kompetentligi;
- yangi bilimlarni izlab topish kompetentligi;
- axborot-texnologik va kommunikatsion kompetentlik;
- ijtimoiy va muloqot kompetentligi;
- o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligi;
- favqulodda vazifalarni bajarish kompetentligi.

Tadqiqot natijalari asosida o'quvchilarning matn yaratish faoliyatini baholash ko'rsatkichlari aniqlashtirildi. Ular quyidagilar:

1. **Kognitivlik.** Bu ko‘rsatkich - shaxsning tashqi axborotni aqliy idrok etish va qayta ishlash qobiliyatini bildiruvchi atama. U mustaqil ilmiy tadqiqotlar asosida rivojlanadi.

2. **Kommunikativlik.** Shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo‘lish, tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa o‘rnatish, axborot to‘plash, turli ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal xulq – atvori.

3. **Kreativlik.** Ijodkorlikning eng asosiy ustunligi, kutilmagan ijodiy g‘oyalar, fikrlar va farazlar hamda yechimlarni topa olishi bilan ajralib turadi.

4. **Onglilik.** Matn yaratish kompetensiyasida ongli, mukammal, puxta ishlab chiqilgan yangi g‘oyalar kashf etish va ulardan samarali foydalana olishni anglatadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Ona tili” darsliklarida matn yaratishning o‘rganilishi ayrim holatlarda ta’rif va tavsiflash bilan chegaralanib qolmoqda. Holbuki, matn yaratish o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, uni o‘zlashtirish qunt bilan ishlashni talab etadi. Zero, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida ayrim teleboshlovchilar, radiomuxbirlarning nutqlarida ham g‘ayritabiiy mantiqsizlik ko‘zga tashlanadi va bu holat ularning o‘qish savodxonligining pastligi hamda adabiy til me’yorlarini to‘g‘ri o‘zlashtira olmaganliklarini anglatadi.

O‘quvchilarga ham matnlar bilan ishlash jarayonida faqat grammatik tahliliy topshiriqlar emas, mantiqiy nutq, mustaqil fikr rivojiga ko‘proq o‘rin ajratish, so‘zdan o‘rinli foydalanish hamda adabiy til me’yorlarini egallash zaruratini uqtirish lozim. Ayni jarayongacha “Ona tili” darsliklarida ham, oliy ta’lim darsliklarida ham matn yaratishga yetarlicha o‘rin ajratilmay kelingan edi. Bu holat nutq izchilligi hamda adabiy talaffuz me’yorlarining o‘quvchi va talabalar tomonidan yetarlicha o‘zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir. Ona tili ta’limi tarixiga nazar tashlasak, bunday holat 1930–1940-yillarda chop etilgan darsliklarda ham uchramasligiga guvoh bo‘lamiz[214].

Shu o‘rinda “matn bilan ishlash” va “matn yaratish” kabi o‘quv topshiriqlarini mohiyatan farqlash, ularning didaktik ta’limdagi o‘rni hamda ahamiyati haqida

to‘xtalib o‘tish joizdir. Bizningcha, matn bilan ishlash o‘quvchini yo‘naltiradi, fikrlab taqqoslashga undaydi; matn yaratish kompetensiyaviy ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, uzoq yillardan beri amalda bo‘lgan qator darslik va qo‘llanmalarda mazkur ikki tushunchaning berilishida biryoqlamalikni ko‘rish mumkin, ya‘ni ikkala holatda ham e‘tibor ko‘roq grammatik tahlildan iborat bo‘lib qolmoqda.

7-9-sinf “Ona tili” darsliklaridan olingan quyidagi namunalar fikrimizni tasdiqlaydi:

12-mashq. Xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, matnni ko‘chiring. So‘zlarning imlosini tushuntiring. Matndagi g‘oyani tahlil qiling.

G‘azapdan o‘zingni asra, chunki g‘azap tufayli inson o‘z ishlarini, ezguliklarini unitadi. Mol-dunyoga xirs qo‘yma, ochko‘z bo‘lma. Ezgu ishni ko‘z-ko‘z qilma. Maxtanchog‘ bo‘lma. O‘z ruhing bilan ziddiyatga tushmasliyning birdan-bir yo‘li foydali mehnatdir.(«Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amal»kitobidan).”[164. 7]

Ushbu mashq shartiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, matn g‘oyasi grammatik tahlili soyasida qolib ketgan, o‘quvchi e‘tibori ko‘proq xato yozilgan so‘zga tushadi, chunki matnda asosiy manzara imlo xatolarda aks etgan.

333-mashq. Berilgan she‘riy misradagi so‘zlarni unli va undoshga ajrating.

Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonliq hargiz,

Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidir”[167. 224].

8-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning so‘rog‘ini aniqlang”[169. 7].

Keltirilgan misollardan ham ko‘rinib turibdiki, darsliklarda mashq va topshiriqlarning maqsadi, vazifasi bir-biridan farqlanmaydi. Barchasida asosiy vazifa berilgan matnni grammatik tahlilga tortish topshirig‘idan iborat bo‘lib qolmoqda.

Har bir tushuncha o‘z mazmun-mohiyatiga xizmat qilishi zarur. Ya‘ni, matn ustida ishlashda tanqidiy taqqoslash ishlari olib borilsa, ko‘zlangan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish mumkin, zero, matn yaratish o‘quvchining zimmasiga bir oz mas‘uliyatli vazifani yuklaydi.

Demak, matn ustida ishlash nutqiy ko‘nikma yoki malaka hosil qilish vositasidir. U yo‘naltiruvchi xususiyatga ega. Matn yaratish orqali o‘quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgatish mumkin bo‘ladi. Zero, matn ustida ishlash ham, matn yaratish ham tafakkur uchun muhim jarayon hisoblanadi. Nazariy ma’lumotlar, ya’ni grammatik qoidalar o‘quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta’lim mazmunida o‘quvchi egallashi ko‘zda tutilgan kompetensiyani, asosan, mantiqiy mustaqil fikrlash shakllantiradi. Yaratiladigan matnlar o‘quvchi tafakkurini boyitishga xizmat qiladi.

Maktabda, odatda, muayyan o‘quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so‘ng ham o‘quvchi va o‘qituvchining shu o‘quv predmeti bo‘yicha bilim berish hamda ma’lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak[122. 4-19.], degan ta’kid, fikrimizcha, “Ona tili” darsliklariga ko‘proq tegishlidir.

Amaldagi dastur va darsliklar o‘quvchini ona tili ta’limi maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma’lumotlar bazasi emas, balki o‘quvchiga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanishni o‘rgatadigan o‘quv topshiriqlari tashkil etmog‘i lozim (Chunki maktabda ona tili ta’limi tilshunos tayyorlash maqsadini emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishni taqozo etadi). Demak, o‘quv topshiriqlari o‘quvchini izlanishga unday olsagina, ularni talab darajasida, deb hisoblash mumkin bo‘ladi.

“Ona tili” darsliklarida to‘g‘ri yozish va imlo me’yorlarini ko‘nikma sifatida shakllantirish borasida ko‘plab turli tushuntirishlar beriladi. Ammo matn yaratish jarayonida ayrim nutqiy savodxonlik masalalarini o‘quvchiga o‘rgatish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaraveradi. Matn yaratish masalasi dunyoning rivojlangan mamlakatlari tillarida atroflicha o‘rganilganligini kuzatamiz [ingliz, fransuz va b.]. Bu borada jahon tajribasida, jumladan, ingliz tilida IELTS baholash tizimida unumli foydalaniladi. Shuning uchun ham amaldagi asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalarida matn yaratish kompetensiyalari hosil bo‘lishi uchun batafsil topshiriqlar berilishi zarur.

Bizningcha, oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun nashr ettirilgan darslik hamda o'quv qo'llanmalarda matn yaratishni shakllantirish uchun maxsus tizimli ishlarni ko'paytirish zarur. Muammoning bir uchi yana umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitish masalasiga borib taqaladi. Ta'lim taqozosiga ko'ra o'quvchilarga nutq savodxonligi bilan birga to'g'ri yozish hamda mantiqiy fikrlashni singdirish talabi ham qo'yiladi. Shu o'rinda aytish joizki, darslikda berilayotgan matnlar uchun onomastikaga oid ma'lumotlardan namunalar berib borilsa, o'quvchilarning dunyoqarashlarini rivojlantirib, matn yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki o'quvchilarda eshitmagan, bilmaganlariga qiziqish kuchli bo'lib, so'zlar bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlar ularni befarq qoldirmaydi. O'quvchilarning yosh xususiyatlari ham darslikda berilayotgan matnlarda e'tiborga olinishi shart, aks holda yoshlarning dunyoqarashlariga zid kelib, ularning qiziqishlariga salbiy ta'sir etishi mumkin.

2019-yil nashr etilgan M.Abduraimova, R.Sayfullaeva, B.Mengliev boshchiligida yaratilgan 8-sinf "Ona tili" darsligida **matn yaratish** uchun berilgan o'quv materiali boshqalariga nisbatan o'quvchiga ancha yaqin[169]. Berilgan matnlar, avvalo, bolaning tafakkuri va tuyg'ulariga ta'sir etib, uni jalb etishga qaratilgan. O'zbek adabiy tili shevalardan o'sib chiqqanligi sababli so'zlarning ma'no farqlanishida hududlar bilan bog'liq jiddiy farqlar ham uchraydi. Maktab ona tili darsliklarini tuzishda, ayniqsa, shevalarga xos o'quv materiallarini berishda mualliflar so'zlarning turli ma'nolarini ham, jumladan, hududiy farqlanish borasidagi ma'lumotlarning berilishi ham ularning hududiy chegaralangan leksika borasidagi bilimlarini oshiradi. Chunki matn tuzishda aniqlik, mantiqlilik va to'g'rilikka erishishni o'quvchilarga singdirib borish zarur. Masalan, tilimizda ismga qo'shib aytiladigan "xonim", "bonu", "niso", "otin", "otincha", "oyim", "mullo", "oyimullo", "begim" singari so'zlardan foydalanilgan va bular badiiy asarlarda takrorlanib turadi. Yuqorida zikr etilgan so'zlarning ma'nolari bir xil emas. Ular o'rtasida ma'lum tafovut va o'xshash tomonlar ham mavjud. Shuningdek, ularning ishlatilish o'rnini ham har xil. Hatto ayrimlari ularning yashash joylariga qarab turlicha ishlatiladi. Jumladan, "otin", "otincha" so'zlari ko'proq Toshkent va Farg'ona vodiysidagi ijodkorlarga xos bo'lsa,

“mullo” , “oyimullo” kabi soʻz va iboralar buxoroliklar uchun xarakterlidir. Zikr etilgan soʻzlarning maʼno jihatidan oʻxshashligi koʻproq jins tushunchasini berib qolmay, aniqrogʻi, jinsni koʻrsatadi. Lugʻatlarda ushbu soʻzlar xotin, ayol, oydek goʻzal ayol, xonning xotini yoki qizi, yuqori tabaqaga mansub ayol yoxud qiz kabi maʼnolarni anglatadi. Yuqorida qayd etilgan soʻz va iboralar davr oʻtishi bilan oʻz maʼnosini oʻzgartiradi. Agar “xonim”, “begim”, “bonu”, “niso” singari soʻzlar dastlabki paytda yuqori tabaqaga mansublikni bildirgan va nomga qoʻshimcha sifatida qoʻshib ishlatilgan boʻlsa, keyinchalik mustaqil nom sifatida qoʻllanilgan. Uning vazifasi oʻzgarishi bilan mazmuni ham kengaya borgan.

Ajdodlardan, umuman, insoniyat daholaridan bugungi kungacha yetib kelgan tafakkurning eng ilgʻor mahsuli boʻlgan *maqol, matal, hikmatli soʻzlar, tasviriy ifodalar, iboralar* ona tili taʼlimining badiiy nafosatini koʻrsatuvchi vositalar boʻlib, ulardan dars mashgʻulotlarida unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Oʻz oʻrnida va oʻz vaqtida oʻquvchilar tafakkuriga singdirilgan bu kabi xalqona milliy durdonalar ularning fikrlarini teranlashtirishga, dunyoqarashlarini kengaytirishga va oʻzlarida hosil boʻlgan ijodiy tafakkur mahsulini ravon, aniq hamda tushunarli tarzda bayon eta olishlariga zamin yaratadi. Eng muhimi, bu kabi vositalarni bilish va nutq jarayonida qoʻllash koʻnikmasiga ega boʻlish oʻquvchilarning maʼnaviy yuksalishiga imkon beradi.

2.2-§. Oʻquvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish modeli: texnologiyalar va metodlar

Oʻqituvchining tizimli ishlari hamda oʻquvchilarning oʻrganayotgan materialni oʻzlashtirishlariga yoʻnaltirilgan faoliyatini tashkil etish loyihasi pedagogik texnologiyadir. Oʻqituvchini samarali faoliyat koʻrsatishga undovchi, taʼlim texnologiyasi oʻquvchilarning mustaqil hamda oʻqituvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatlarini inobatga olib, oʻquv materiallarini mustaqil oʻzlashtirishlarida muhim sharoitlarni yaratib beradi. Taʼlim texnologiyasining markaziy asosi – taʼlim oluvchilarni rivojlantirish orqali taʼlim maqsadini taʼminlashdir. 7-9-sinflarda matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda ilgʻor pedagogik texnologiyalardan unumli

foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tabiiyki, bu matn yaratishda, jumladan, o'quvchiga nutq elementlarini to'g'ri qo'llashni o'rgatishda juda qo'l keladi.

O'quvchilarning matn bilan ishlash faoliyatini shakllantirish modulining vazifani taqdim etish va tashkil etish jarayoni quyidagilarga qaratilgan.

O'quvchilarni mustaqil matn yaratishga o'rgatishda tafakkurning eng muhim lingvo-psixologik jarayonlarini e'tiborga olib ta'lim mazmunini tanlash, bilim olish, mustaqil ijodiy izlanishga yo'naltiruvchi muhit yaratish hamda ularni inson kapitali

Vazifalar tizimi o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish, ular bilan ishlashda tizimli yondashuvni tashkil etish yaxlitligini ifoda etadi.


Matnni yaratishda muallif kitobxon pozitsiyani hisobga olishi, uning nuqtayi nazaridan qarash qobiliyatiga ega bo'lish: yaratilgan matn kitobxon tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi, tanlangan kompozitsion tarkib va nutq vositalar muallif fikrini tushunish va tasvirlanganlarni uning ko'zlari bilan ko'rishga imkon beradimi yoki yo'qmi kabilarga e'tibor berish zaur. Chunki o'quvchi qachonki muallif fikrini tushunish qobiliyatiga ega bo'lgandagina haqiqiy kitobxonga aylanadi. Monografiyaning asosiy mohiyati loyihalash tamoyillarining yangilanishidir. Umumiy didaktik prinsiplardan tashqari, yangilariga asoslandi, ya'ni ikki maqsadni amalga oshirishga imkon beradigan, ta'limiy va tayanch vazifalar: tahliliy va ijodiy faoliyatda yuzaga keladigan xatolar va qiyinchiliklarning oldini olish; o'quvchilar yosh xususiyatlari bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

Metodologik komponentda o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish manbalari o'rganilib, texnologiyalarni takomillashtirish belgilandi. Tashkiliy komponentga matn bilan ishlash faoliyatini tashkil etish pedagogik jarayoni kiritildi. Pedagogik jarayon komponentida o'qituvchining kasbiy faoliyati loyihalash va ijodkorlikni rivojlantirishda milliy, aksiologik, integratsion yondashuv bilan; o'quvchining bilish faoliyati esa kognitiv bilim, ongli tushunish, amalda qo'llash, tahlil, sintez, xulosalash orqali yaratuvchanlik bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarni o'zlashtirish omillari bilan izohlanadi. Tashkiliy komponent kommunikativ bilimlarni yangilash, rivojlantirish, to'ldirish, xotirada tiklash, korreksiyalash motivatsiyani

oshirish orqali o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Mashg'ulotlarning tashkiliy jarayon komponenti dars, darsdan keyingi o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyati va sinfdan tashqari integratsion mashg'ulotlar kabi o'qitish shakllaridan iborat. O'qitish metodlari sifatida esa ijodiy, mantiqiy, muammoli va amaliy metodlar tanlandi. O'qitish vositalariga esa elektron darslik, vizual ekskursiya, nostandart testlar, sxema va jadvallar kiritildi. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari sifatida didaktik ta'lim texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi va hamkorlikda ishlash texnologiyasi tanlandi.

Mashg'ulotlarning natija komponenti esa matn yaratish ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchi shaxsini tarbiyalashni nazarda tutadi. Pedagogik jarayonga nisbatan innovatsiya tushunchasi ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish kabi faoliyatlarga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. O'quvchilarining kommunikativ rivojlanishi uchun zamonaviy talablarni hisobga olish, didaktik tizimning barcha tarkibiy qismlarini: motivatsion, aksiologik, tashkiliy, texnologik, hissiy va ongli hamda integratsiyon yondashuv tahliliy matn faoliyati va matn yaratish jarayonining o'zaro bog'liqligini belgilaydi.

O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda foydalanilgan innovatsion texnologiyalardan *tahliliy, ijodiy va klaster modulini* bajarish faoliyati taklif etildi (2.3-rasm).



Bu modullar o'z navbatida bajariladigan bir qancha elementlardan tashkil topadi. Matn

yaratish kompetensiyasini rivojlantirish faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashni talab qiluvchi quyidagi elementlarni bajarish vazifalarini o'z ichiga olgan ishlar taklif qilindi:

- matn turlarini integratsion bog'lash;
- matn mavzusini va uning mikromavzularini aniqlash;
- matnning asosiy g'oyasini aniqlash;
- mavzu yoki matnning asosiy g'oyasini aks ettiruvchi sarlavha tanlash;
- matn mavzusini taqdim qilingan matnning ma'no doirasiga muvofiqligini va uning ko'lamini mikromavzularni tanlash orqali aniqlashtirish;
- rejalashtirilgan matnning asosiy g'oyasini shakllantirish;
- rejalashtirilgan matn tarkibini yaratish;
- mavzu va g'oyaga muvofiq reja, tayanch va kalit so'zlar asosida, yaxlitlik, izchillik va nisbiy to'liqlik talablari asosida matn yaratish;
- matnni mazmuni, tarkibi va uslubiy vazifasiga muvofiq xatboshilarga ajratish;
- matn mavzusiga muvofiq klaster asosida matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish.

1-jadval

Matnni tahliliy idrok etish	Matnni ijodiy talqin qilish	Integratsion- klaster matnli faoliyat
Matn yaratish nazariyasi asoslarini o'rganish: asosiy tushunchalarni anglash va qo'llash	-taqdim etilgan matn talablari bilan matn tuzish faoliyati; -ijodiy matn yaratish faoliyati	Mumtoz adabiyot namunalaridan foydalanib matn ichida matn keltirish usullarini tadqiq etish. Qoliplovchi va qoliplanuvchi usullarida matn yaratish
Matn turlarini integratsion bog'lash va matn turini aniqlash; matn mavzusi va mikromavzularni aniqlash; matn g'oyasini aniqlash; mavzu yoki g'oyasni aks ettiruvchi sarlavha tanlash, matnni xatboshilarga ajratish.	Matnning asosiy g'oyasini shakllantirish; tarkibini yaratish; mavzu va g'oyaga muvofiq reja, tayanch va kalit so'zlar tanlab matn yaratish.	Matn mavzusiga muvofiq klaster usulida matn yaratish.

Manografiyada matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda mustaqil matn bilan ishlash faoliyati vazifalari yoritildi.

Pedagogik texnologiya – ta’lim berish, o’qitish jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida o’rgatish va bilim egallash jarayonida o’qituvchilarning pedagogik va o’quvchining o’quv - bilish faoliyatini uyg’un ravishda tashkil etish, mazkur faoliyatni faollashtirishni ko’zda tutib, sifatli o’qitish metodlari, vositalari va shakllarini qo’llash, ularning o’zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimlar majmuasidir. Bosqichning maqsadi 7-9 sinf o’quvchilarida matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish va matnli faoliyatni tavsiflovchi bilim, ko’nikma va malakalar darajasini oshirishdir. Bizning farazimizda aks ettirilgan o’z g’oyasini mujassam etishga intilayotgan muallif rolining matn shaklidagi “harakati” samarali faoliyatni shakllantirishga yordam beradi. 7-9-sinflarda egallangan bilim va ko’nikmalarning mustaqil faoliyatda shakllanish barqarorligi hamda foydalanish imkoniyati natijalarini kafolatlagan diagnostika o’tkazildi. Zamonaviy ta’limda shaxs ijodiy tafakkurini ongli ravishda rivojlanishiga qaratish tamoyillari hukmronlik qilmoqda. Ijodkor shaxsni tarbiyalash g’oyasiga hamma zamonlarda ham katta e’tibor qaratilgan.

2-jadval

Didaktik texnologiya	Loyiha texnologiyasida	Muammoli o’qitish texnologiyasi	Hamkorlikda ishlash texnologiyasi
Rolli o’yinlar, ijodiy o’yinlar, ishbilarmon o’yinlar, konferensiya darslari, matbuot konferensiya, o’yin mashqlar.	Izlanish xarakteridagi loyihalar, ijodiy loyihalar; amaliy xarakterdagi loyihalar, tadqiqot xarakteridagi loyihalar(nostandart testlar, video-rolklar) takomillashtirildi.	“Pochta” o’yini, “Musiqiy topishmoq” kabi muammoli video-topishmoqlar takomillashtirildi. Metodlar: muammoli izlanish xarakteridagi suhbat, muammoli bayon, muammoli amaliy ishlar, munozarali darslar.	Ota-ona, maktab, kutubxona hamkorligi, shoir va yozuvchilar, radio-televideniye hamkorligi. Metodlar:komandada o’qitish, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish, zig-zag.

Didaktik texnologiya - O’quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda foydalaniladigan innovatsion texnologiyalar nutq madaniyati

elementlarining rivojlanganlik darajasiga muvofiq ta'lim mazmunini tanlash, o'quvchilarni bilim olish, mustaqil ijodiy izlanishga yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini rivojlanganlik darajasi dinamikasini tadqiq etish, ijodkor o'quvchilarni inson kapitali darajasiga yo'naltirish asosida umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning didaktik o'quv topshiriqlari ishlab chiqildi. Ushbu topshiriqlar ona tili va adabiyot fanini o'qitish jarayonida ijodkor o'quvchilarni shakllantirish va uni rivojlantirish, ular bilan ishlashda tizimli yondashuvni tashkil qilish, ularni qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishning yaxlitligini ifoda etadi.

Didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars ko'rinishida amalga oshiriladi. Bunday darslarda o'quvchilarning o'quv faoliyati o'yin shaklida tashkillashtiriladi. Natijada, o'quvchilarda yuqori darajadagi qiziqish bilan kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashga hamda o'zligini namoyon etishga, turli muammolarni yengishga yordam beradi.

Didaktik o'yinli darslarni syujetli – rolly o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmon o'yinlar, konferensiyalar, o'yin topshiriqlarga ajratish mumkin.

1.Syujetli – rolly o'yinlarda “Mustaqil so'z turkumlari” mavzusini o'rganishda o'quvchilar tomonidan “So'zlar saltanatiga sayohat” nomli sahna ko'rinishi ijro etiladi. Bunda o'quvchilar tomonidan bir turkumdagi mustaqil so'zlarning bir qancha gap bo'laklari vazifasida kelishiga misollar keltiradi. O'qituvchi yordamida senariy tuziladi. Bu so'zlarning turli sintaktik vazifa bajarishiga oid misollar tuziladi va shu so'zlar bilan matn yaratiladi.

2.Ijodiy o'yinlarda o'quvchilarni “Dunyo tillari” va “O'zbek tili” guruhlariga ajratish mumkin. “Dunyo tillari orasida o'zbek tili” mavzusining maqsadi va vazifalari tushuntirib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. 1- bosqichda guruhlar o'zaro bugungi kunda o'zbek tilining dunyo tillari qatoriga kirish muammolarini tahlil qilsalar, 2 - bosqichda guruhlar bir-birlari bilan ushbu muammoni yechish yuzasidan savol - javob,

bahs - munozara o'tkazishadi. O'z fikrlarini yozma matn shaklida ifodalab berishlari ham mumkin. Kitobxonlar tomonidan yozuvchilarga qanday mavzuda asarlar o'qish yuzasidan buyurtmalar va ushbu buyurtmalarga asoslanib matnlar yaratiladi.

3. Ishbilarmonlar o'yinida o'quvchilarga jamiyatda o'z o'rinlarini topishlarida o'z kasblarining mohir ustalari bo'lish haqida ma'lumotlar beriladi. 7 - sinf darsligidan "Zamonamiz qahramonlari" mavzusida keltirilgan soha egalarining xususiyatlari tahlil qilinishi mumkin. O'qituvchi tomonidan yangi chiqqan kitoblar taqdimoti uyushtiriladi. O'quvchilarning 30 foizi ushbu kitoblar mualliflari, 70 foizi kitobxonlarga ajratiladi. Ushbu darsga bir hafta oldin tayyorgarlik ko'rish zarur bo'ladi, ya'ni o'quvchilarga taqdimotga qo'yiladigan kitoblar ro'yxati beriladi. Bu kitoblar bilan o'quvchilar tanishib chiqadilar va darsda auksionga qo'yilgan kitoblardan o'zlariga yoqqan kitoblarni tanlashadi. Shu tariqa past baholangan kitoblar bo'yicha savol - javoblar uyushtirilib muhokama qilinadi. 1 - bosqichda guruhlar o'zaro yozuvchilar va kitobxonlar rolida, bugungi kunda kitob o'qishdagi muammolarni hal etishsa, 2- bosqichda guruhlar bir - birlari bilan ushbu muammoni yechish yuzasidan savol - javob, bahs - munozara o'tkazishadi. Kitobxonlar tomonidan yozuvchilarga qanday mavzuda asarlar o'qish yuzasidan buyurtmalar tushadi va ushbu buyurtmalarga asoslanib matnlar yaratiladi.

4. Konferensiya darsdan 10 kun oldin tayyorgarlik ko'rish uchun mavzu e'lon qilinadi va adabiyotlar ro'yxati beriladi va oldindan tayinlangan o'quvchilarga "olimlar" roli beriladi. O'qituvchi darsning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirgach, tegishli rollarni bajaruvchi "olimlar" bilan tanishtiradi. "Olimlar" "Inshoning mavzu va mazmuniga ko'ra turlari" mavzusiga oid ilmiy ma'ruzalarni, ko'rgazmali qurollar asosida bayon etishadi. "Olimlar" va sinfdagi o'quvchilar bilan mavzu yuzasidan bahs - munozara uyushtiriladi. Mavzu bo'yicha fikrlari yozma ravishda asoslanadi. O'qituvchi tomonidan dars yakunida mavzu yuzasidan eng muhim tushunchalar ta'kidlanadi va faol qatnashganlar rag'batlantirilib baholanadi.

5. Matbuot konferensiyasida sinf o'quvchilari bir hafta avval ikki guruhga bo'linadi. "Adabiy nutq me'yorlari. Nutqning ko'rinishlari" mavzusi bo'yicha o'quvchilarga

adabiy til me'yorlarining buzilish holatlari tahlil qilinadi. Birinchi guruh o'quvchilari respublikamizda nashr etiladigan gazeta va jurnallarning muxbirlari rolini bajaradilar. Ikkinchi guruh esa ushbu gazeta va jurnallarda beriladigan materiallarning publitsistik nutq uslublariga qanchalik mosligi va imlo xatolari singari muammolar haqida savollar bilan murojaat qilishadi.

6. O'yin mashqlar. O'qituvchining kirish so'zidan keyin "Matn va lug'at ustida ishlash" mavzusi e'lon qilinadi. Avvalo o'quvchilar darslikka yangi kiritilgan so'zlarning ma'nosini o'zlashtiradilar. Bu so'zlarning iste'moldan chiqib ketish muammolarini hal etish yo'llari belgilanadi. Dars "Zinama-zina" metodi qoidasi bo'yicha 2 bosqichda o'tkazildi. 1-bosqichda o'quvchilardan lug'atlar majmuasi bo'yicha so'zlar izohi so'raldi. 2-bosqichda ushbu so'zlar sinonimlari bilan avval gaplar, keyin matn tuzish topshiriladi.

II. Loyiha texnologiyasi - ta'limni rivojlantirishda loyiha faoliyatiga katta e'tibor qaratish talab etiladi, chunki loyiha yaratish jarayonida o'quvchi ma'lumotni mustaqil tahlil qilish va qayta ishlashni o'rganadi. Darsda esa uni amalga oshirishda ko'plab muammolar uchraydi: bu tashkil etish, ma'lumot yig'ish va ro'yxatga olish, vazifaviy topshiriqlar, ularni tatbiq etish va xulosalash bosqichlaridan iborat. Loyiyaning bunday muhim bosqichlarini darsda bajarish qiyin, ularni asosan nutqni rivojlantirish maqsadida o'quvchilar kompetensiyasini oshirish uchun mustaqil berilishi ularning kelajakda kommunikativ layoqatini oshirishga turtki bo'ladi. Bunday darslarda o'quvchilarning aqliy va tafakkur rivojlanishi shakllanib, intellektual qobiliyati muhim sanaladi. Natijada o'quvchilar izlanish xarakteridagi va amaliy xarakterdagi loyihalarda:

- kutubxonalarga borib axborot to'plash, o'qish savodxonligini oshirish;
- konferensiyalarda, tadbirlarda ma'ruzalar bilan qatnashish;
- darslar uchun loyihalar va prezentatsiyalar tuzish uchun asosiy kompyuter dasturlarini bilishi;

- mavzularni o'rganishga yuqori motivatsiya, ko'rgazmalilikdan faol foydalanish va muammoli yondashuv asosida darslarga tayyorlanish vaqtini qisqartirishi;

- kognitivlikning yuqori sifatini anglashi;

- nostandart ijodiy vazifalarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- fanlar bo'yicha olimpiadalarda faol ishtirok etishda esa o'ziga xos natijaga erishishlari kuzatildi.

O'qituvchilar o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish jarayonida loyihalashdan foydalanib, quyidagi natijalarga erishadi:

1. Kommunikativ faol o'quvchilarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tizimli ish olib boradi.

2. Maktab veb-saytida va jamoasida faol ishtirok etadi.

3. Darslarga tayyorarlik uchun vaqtini qisqartirish va uni kasbiy kompetentligini oshirishga sarflashga o'rganadi.

4. Axborot-kommunikatsiya (elektron ta'lim resurslari; kompyuter darsliklari; o'tgan materialni avtomatlashtirilgan tarzda nazorat qilish, no'anaviy-mantiqiy test) singari nazoratni amalga oshirish bilan birga o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, mediasavodxonlik darajasini shakllantirishda asos bo'ladi.

Loyihalash texnologiyasida taqdimotlar, ya'ni "Video topishmoqlar", animatsiyalar, audio va video lavhalar, diafilmlar bilan ishlash, musiqiy toshiriqlar, QR-kodli topshiriqlar, ijodiy va amaliy ishlar o'tkazildi. Biz tomondan o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan "Pochta o'yini" metodi takomillashtirildi. Quyida ushbu metod bilan ishlash jarayoni bilan tanishtiramiz.

POCHTA O'YINI

Ushbu o'yin jami 14 ta taqdimotdan iborat bo'lib, matn yaratishga mo'ljallangan savol va topshiriqlardan iborat.

1. O'yin boshlanishdan oldin:



2. Ko‘zlarni harakatlantirish orqali konvertlarni ochamiz:



3. Pochtadan kelgan xatdagi savollar oynasi ochiladi:



Savollarni navbat bilan tanlab, ustiga bosiladi va savollar ochiladi.

4. Savollar ekranda namoyon bo‘ladi.



Birinchi savolni o'qiymiz, javob beramiz. Javob qanchalik to'g'riligini aniqlash uchun sichqoncha bilan chap tugmasini savolga bosganda, javoblar ekranda hosil bo'ladi.



5. Davom etish tugmasini bosish orqali dastlabki savollar oynasi ochiladi.



6. Ekranida yana raqam tanlanadi va savollar oynasi ochiladi.



O'yin shu tariqa davom etadi.

Ijodiy loyihalar, izlanish xarakteridagi loyihalar, rolli o'yin loyihalari, amaliy xarakterdagi loyihalardan matn bilan ishlashda foydalanish mumkin. 8-sinf ona tili kursida “Sintaksis” bilan bog‘liq mavzu kichik guruhlarda tashkil etilib, ularga quyidagi topshiriqlar tavsiya etiladi:

1-guruh topshiriqlari. Mustaqil so‘z turkumlarining gapda sintaktik vazifa bajarishini hayotiy tushunchalar bilan bog‘lang.

2-guruh topshiriqlari. Jamiyatda bajariladigan vazifalar uchun olib borilayotgan ishlar va kasblar haqida ma’lumotlar to‘plang.

3-guruh topshiriqlari. Vazifalarni bajara olmaslik va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlang.

4-guruh topshiriqlari. Kasb tanlash muammolari va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlang.

Barcha guruh a’zolariga “So‘z sehri”, “So‘zlar olamiga sayohat” mavzularida ertak va matnlar tuzish tavsiya etiladi.

Mantiqiy tafakkurlashni shakllantirish uchun no’ananaviy testlar berilishi ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Testlardan namunalar ilovada keltirilgan.

Bu texnologiyada uyga vazifa sifatida muvashshah janridagi she'rlardan tuzib kelish taklif etilish ham mumkin. Topshiriqlarni bajarish uchun ijodiy yondashuv tavsiya etiladi.

III. Muammoli ta'limda matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish omillari. Unda matn tiplari va uning lingvistik belgi-xususiyatlari ta'rifi, tilshunos olimlarning matn haqidagi ilmiy qarashlari, tilni tizimli o'rganish nazariyasining matn amaliyotiga bevosita tatbiqi, tilning nutqiy imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati ko'rsatib o'tildi. Matn tiplari va uning lingvistik belgi-xususiyatlari, matn tushunchasi ta'rifi, tilshunos va pedagog olimlar N. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Q. G'ulomov, T.Ziydovlarning "matn – nutqning yozma ko'rinishi" gina emas, balki "og'zaki nutq birligi" ham ekanligi, umumiste'molda uning og'zaki va yozma turlari mavjudligi, xorijiy psixologlar N.I.Jinkin, J.A.Grexem, va D.Perinlarning tadqiqotlarida matn yaratishda dastlabki samarali strategiya haqidagi ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Ona tili o'qitish metodikasida "tayanch va xususiy kompetensiyalar", "o'quvchi matni", "matn" tushunchasi, "nutqiy kompetentlik" birikmalari izohlandi, ilmiy mohiyati ochib berildi.

Muammoli o'qitish texnologiyasi - ushbu texnologiya o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda muhim deb hisoblaymiz, chunki transformatsion ko'chirish faoliyat muammolarni yechishda samarali amalga oshiriladi. Tajribalardan munozarali muammolarni yechish o'quvchilarning bilish qobiliyatini yuqori darajada ta'minlanishi aniqlandi.

Muammoli izlanish metodlarida maqsadga yo'naltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llashi orqali o'quv materialini faol o'zlashtira oladilar. Bu metodlar o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ijodiy va mustaqil fikr yuritishini ta'minlash bilan muammolarni yechishning eng maqbul yo'lini topishga tayyorlaydi.

Muammoli vaziyat tashkil etilib, muammoni yechishda o'qitishning zamonaviy metodlaridan induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish, metodlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Induktiv metodda – o‘quvchilarning e‘tibori avval xususiy faktlarni o‘ranishga jalb qilinadi, so‘ngra xususiyydan umumiy xulosalar chiqarishga yo‘naltiriladi.

Deduktiv metodda avval umumiy qonunlarni o‘rganishdi, keyin xususiy xulosalar chiqarishadi.

Tahlil metodida axborotni anglab, idrok etishgach o‘rgangan obyektlarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlab tarkibiy qismlarga ajratib, ular o‘rtasidagi boshlanishlar, sabab - oqibatlarni aniqlashga harakat qilishadi.


Bosh g‘oyani ajratish metodi muhim ahamiyat kasb etib o‘quv materialidan asosiy g‘oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g‘oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so‘z va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarishga o‘rganishadi.

Qiyoslash metodida o‘quv topshiriqlarida berilgan qiyosiy obyektlarni aniqlash, obyektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirishga o‘rganishadi. Ayniqsa, matn turlarini qiyoslab o‘rganishda yaxshi samaralar beradi.

Umumlashtirish metodida muammolarni hal etish jarayonida o‘quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiy xulosa chiqarishga yo‘naltiradi.

Muammoli ta’lim jarayoni mukammal aloqadagi tobora murakkab vaziyatlardan iborat. Muammoli o‘qitish texnologiyasida o‘qituvchi ko‘pincha muammoli savollardan, topshiriqlardan, muammoli hikoya usulidan kognitiv (muammoli) vazifalar shaklida foydalanadi. Muammolarni yuzaga keltiruvchi izchil vazifalar majmui muammoli o‘qitishning asosiy vazifasi fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu esa o‘quvchilar izlanishlari jarayonida ijodkorlik qobiliyatlari shakllanishiga imkon beradi. Muammoli ta’lim texnologiyasiga didaktik vositalardan foydalanish o‘quvchilar ijodkorligini shakllantirishda eng qulay usullardan sanaladi. Bunda o‘quvchiga munozarali matn yoki tarqatma didaktik kartochkali topshiriqlar

beriladi va o'quvchining jarayon yoki hodisani izohlash orqali kreativ fikrlash tarzi rivojlantiriladi. Muammoli ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'qituvchilar ularni to'g'ri tanlashga e'tibor qaratishlari zarur. Quyidagilar muammoli ta'limning asosiy metodlari sanaladi. (2.4-rasm)



Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan nostandart topshiriqlarga quyidagilar misol bo'la oladi:

Tadqiqot metodi. Evristik metod. Namuna tariqasida guruh bilan hamkorlikda muammoni yechishga undovchi topshiriqlar berish, o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani uyg'otadi. Quyida kasb tanlash mavzusida tuziladigan

matnlar uchun muammoli ta'lim texnologiyasiga oid bir soatlik dars ishlanmasi beriladi:

Mavzu: Men yoqtirgan kasb

I. Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: mustaqil matn yaratish haqida o'quvchilarga tushunchalar berish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarning ijodiy jarayonga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, didaktik, axloqiy tarbiya berish.

v) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

d) shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar:

II. Darsning turi: amaliy, nazariy, aralash, no'anaviy, an'anaviy.

III. Darsning metodi: Bosh g'oyani ajratish metodi, tadqiqot, klaster

Darsning usuli: aqliy hujum, muammoli vaziyat, hamkorlikda ishlash.

Darsning jihozi: matn yaratish uchun nazorat va qoralama daftarlar, ko'rgazmali qurollar, turli kasblarga oid qiziqarli ma'lumotlar .

Didaktik jihoz: tarqatma materiallar, slaydlar, bukletlar.

Texnik jihoz: kadoskop, komp'yuter, flepchat doska.

Dars uchun talab etiladigan vaqt: 45 daqiqa:

Darsning texnologik xaritasi (2.3-jadval):

3-jadval

“Men yoqtirgan kasb” mavzusdagi dars mashg'ulotining texnologik xaritasi

Texnologik bosqichlar	O'qituvchining faoliyati	O'quvchining faoliyati
I bosqich Tashkiliy qism 2 daqiqa	O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtiradi.	Dars mavzusi, maqsadi, borishi va unda bajariladigan topshiriqlarni anglaydi.
II bosqich Mavzu yuzasidan o'quvchilarni xabardor qilish. 5 daqiqa	O'zlashtirgan bilimlari yuzasidan tuzilgan muammoli vaziyat savollari yordamida o'quvchilarning bilimlarini nazorat qiladi va mustahkamlaydi.	O'zlashtirganlari yuzasidan tuzilgan muammoli vaziyat savollarini bajaradi.
III bosqich		O'z faoliyatini tashkil etadi. O'quv materiali

Mavzuni bahs-munozarali tahlil etish 5 daqiqa IV bosqich O'quvchilar ijodiy jarayoniga vaqt ajratish va nazorat qilish 30 daqiqa V bosqich Erishilgan natijani tahlil qilish va yakun yasash. VI Bosqich: Uyga vazifa	O'quv dasturidan o'rin olgan topshiriqlarni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlaydi. O'quv materialini yaxlit holda ishlab chiqilishini amalga oshiradi va tegishli hollarda yordam uyushtiradi. O'rganilgan mavzu yuzasidan didaktik tarqatmalar va masalalar beradi. O'quvchilar faoliyatini va natijani tahlil qilish, o'quvchilarga mustaqil ishlashi uchun topshiriqlar beradi.	yaxlit holda ishlab chiqilishida ishtirok etadi. Didaktik tarqatmalarga javob beradi va munozarada ishtirok etadi. Matn yaratish kompetensiyasi shakllanadi. O'z faoliyati va erishgan natijasini tahlil qiladi va baholaydi. Mustaqil topshiriqlarni bajara oladi. Kommunikativ kompetensiyasi oshadi.
---	--	--

Darsning borishi (reja):

1. Tashkiliy qism:

a) salomlashish;

b) tozalikni aniqlash;

d) davomatni aniqlash;

c) darsga tayyorgarlik ko'rish va dars rejasi,

2.Uyga vazifani so'rab baholash: a) og'zaki so'rov

Muammoli vaziyat: sinfdoshlari Akromjonni yoqtirgan kasbi uchun uyaltirishmoqda, ota-onasi uni eshitishni ham xohlashmaydi.

Yechish: o'quvchilar tomonidan Akromjonning ota-onasiga kasblar mavzusida maktub yozishlari uyushtiriladi.

Savol:


- 1.Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?
- 2.Siz yoqtirgan kasb?
3. Bu kasbni nima uchun tanlagansiz?
4. Tanlagan kasbingizni egallash uchun sizdan nima talab etiladi?
5. Ota-onangiz sizga qanday kasblarni tavsiya qilishmoqda?
6. Ular siz tanlagan kasbga qarshi emasmi?

7. Sizga yoqtirmagan kasbingizni tavsiya etishsa qanday yo‘l tutasiz?

V. Yangi mavzu bayoni: «Men yoqtirgan kasb» mavzusida ijodiy bayon yozish.

Yuqori sinf o‘quvchilarida uchraydigan kasb tanlash muammosida vaziyatga quyidagicha yondashish tavsiya etiladi. O‘qituvchi tomonidan qoliplovchi matn taqdim etilib, o‘quvchilarga muammoni yechishda taklif va maslahatlarini yozib berishlari tashkillashtiriladi. O‘quvchilarga “Akromjonning orzusi” nomli matn o‘qib berilib va matnda ko‘tarilgan masala bo‘yicha muammoli vaziyat yaratiladi. O‘quvchilarga bu muammoni yechish uchun Akromjonning ota-onasiga maktub yozishlari tashkillashtiriladi. Maktub kasb tanlashda adashmaslik, yoqtirmagan kasb tanlashdagi oqibatlarga qaratilmog‘i lozim.

Yangi mavzuni mustahkamlash. QOLIPLOVCHI HIKOYA «Akromjonning orzusi» (2.5-rasm):



«Akromjonning orzusi» mavzusidagi qoliplovchi hikoya sxemasi

Qoliplovchi hikoya taqdim etilgach, o‘quvchilardan Akromjonning ota-onasiga kasb tanlashda adashmaslik, halol mehnat – rizq-ro‘z manbai kabi mavzularda maktub yozishlari tashkillashtiriladi, o‘quvchilar zo‘r qiziqish bilan ishga kirishadilar.

VI. Uyga vazifa. Qoliplanuvchi hikoyalar uchun uyga vazifa qilib o‘quvchilarga kutubxonalardan zarur kitoblarni topib o‘qishlari topshiriladi va hamkorlik bilan ishlash tavsiya etiladi.

Ushbu metodlarda yosh avlod tafakkuri, ongi, mantiqiy fikrlashi, ma’naviy olami o‘rishiga katta natijalar beradi. Bolani o‘qishdan sovushi, zerikishi, majburiy bosim bilan yozishlarining oldi olinadi. O‘quvchi o‘zi xohlab, katta qiziqish bilan yondasha boshlaydi va har bir harakat yaxshi samaralarga erishish mumkin. Yozma nutq oshishida nafaqat yozma savodxonlik, balki ma’naviy olam, tafakkur va tasavvur olamida ham ulkan kashfiyotlar ro‘y bera boshlaydi deb ayta olamiz.

IV. Hamkorlikda ishlash texnologiyasi - ishtirokchilarning o‘zini yaxshi anglashini, faolligini ta’minlaydi. Faol o‘quvchi guruh bilan ishlashda nafaqat o‘zini, balki atrofdagi bolalarni rivojlantirishda yetakchilik qiladi. O‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini tashkil etish barcha davrlarda ham o‘ta dolzarb, bu hamkorlikning nazariy asoslari pedagogik sinergetika doirasida tadqiq etilgan. Bu ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi uchun o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etishga oid nazariy yondashuvlardan biri bo‘lib, hamkorlikni to‘g‘ri tashkil qilish uchun yangi dunyoqarashdir. Sinergetika (yunoncha sunergia – hamkorlik, hamjihatlik) – tizimlarning o‘z-o‘zini mustaqil tarzda tashkil etish nazariyasi, o‘z-o‘zini boshqarish, nomuntazam hodisalarni o‘rganish, dunyoviy hodisalarni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish, tafakkur usulidir. Sinergetika, ya’ni hamkorlik ilmiy yo‘nalish sifatida XX asrning 60-70-yillarida shakllangan.

Hamkorlikda o‘qitishning “arra” metodida o‘quvchilarni 4 ta kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir kichik guruhga muayyan matnning xatboshilari taqsimlanadi, har bir guruh o‘z xatboshisini “mutaxassis” darajasida o‘rganishadi. Guruhlar qaytadan kichik guruhlariga ajratilganda, har bir yangi tashkil etilgan guruhda oldingi guruh “mutaxassis”laridan bittadan nomzod bo‘lishi ta’minlanadi. Chunki “mutaxassis”lar yangi guruhlariga o‘rgangan matn qismi haqida “arra” ketma- ketligida ma’lumot beradilar. Guruhlar tomonidan har bir “mutaxassis” ma’lumotiga asoslanib matn qismlariga sarlavhalar qo‘yilib, matn qayta tiklanadi.

Ta'limiy ishlarni hamkorlikda tashkil etishda quyidagi asosiy holatlarni keltirib o'tish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, matn bilan ishlashni integratsion shakllantirishga muvofiq, ta'lim suhbatlarini tanlash jamoaviy munozaraning asosiy usuli sifatida nafaqat tahliliy faoliyatning maqsadni ongli amalga oshirish va qabul qilishning samarali vositasi, shuningdek, ijodiy izlanishlarda o'z motivining paydo bo'lishiga hissa qo'shish vositasi sifatida ijodiy ishlar amalga oshiriladi.

Bu jarayonda o'quvchilarning ota-onalari bilan birgalikda jamoaviy kitobxonlik bellashuvlari uyushtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Evristik suhbatlarning asosi ishtirokchilarning taklif qilingan muammo muhokamasida qiziqishi, sinfdoshlari fikrlariga qiziqishi va natijada ta'lim aloqalarida faol ishtirok etish: bildirilgan fikrlarni tahlil qilish, muhokama qilinayotgan fikrni o'z tushunganlari bilan taqqoslash, diskussiyalarda ishtirok etish edi. Evristik suhbatlarini tashkil etish xususiyatlari:

1. Tasavvur etish usullari bilan ishlash. Tavsiya etilgan mavzular o'quvchilar harakatlarini jonlantiradi, ularning xotirasida chuqur iz qoldiruvchi hayotlari bilan bog'liq tasavvurlar uyg'otadi. Maqsad o'quvchilar tomonidan ta'lim vazifasini qabul qilish va uni butun faoliyat davomida "saqlab qolish" edi, masalan:

"Tasavvur qiling, sinfda o'qituvchi yo'q va o'quvchilarga matn bayoni (hikoya), (mulohaza yuritish) yaratishni o'rgatish kerak. O'qituvchi rolini kim egallaydi: bunday matnni yaratish rejasini tushuntiring?";

"Tasavvur qiling-a, siz notanish oroldasiz, o'zingizni qutqarish uchun nima qilishingiz mumkin?", "Kim o'zini qutqarish uchun nimalar olish kerakligini yozib beradi?";

"Tasavvur qiling, siz bog'i eramni yaratgan Sehgarsiz. Bu bog'ni ta'riflang";

"Tasavvur qiling, siz XXII asrdasiz. Ko'chada nimalarni ko'rishingiz mumkin, ularni tasvirlab bering";

"Tasavvur qiling, siz ijodiy ishlar tanlovida hay'at a'zosisiz. Har kim qila oladigan tanlov ishtirokchilari tomonidan yaratiladigan matnlarga talablar qo'ying".

O'quvchi o'zining kamoloti uchun intilsagina maqsadlariga yetishi mumkin.

2. “Reminissensiya”ga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarning o‘qish va yozish savodxonligini oshirib, xotirasini tiklashda yaxshi samara beradi. O‘quvchilar yozma ishlarga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida asarning xotirada yaxshi saqlangan qismini aynan keltirishga e‘tibor qaratadilar. Bunda ko‘chirmachilikka yo‘l qo‘ymaslik uchun, asar mohiyatini tushunib, o‘zlariga yoqqan yoki ta’siri kuchli qismlarini (jummalarni)ni o‘zgartirmasdan, aynan keltirishga harakat qiladilar. Bu jarayonda ko‘proq sinfdan tashqari kitob o‘qishga ahamiyat beriladi. O‘quvchilar yozma ishlarida o‘qigan asarlaridan parchalarni, namunalarni aynan keltiradilar. Bunday mashqlar hamkorlikda ishlash jarayonida barcha o‘quvchilarni qamrab oladi. Bunda sinf o‘quvchilari kichik guruhlariga bo‘linadi. Har har bir guruh a‘zosi o‘z xotirasida qolganlar bilan guruhga kerakli ma’lumotlarni beradi. Guruh ishtirokchilari birgalikda to‘plangan ma’lumotlari asosida umumlashma matn yaratishadi. Bu ish turli fikrlarni jamlab, matnda ifodalash uchun kuchli tafakkur, mantiq zaruratini tug‘diradi hamda barcha ishtirokchilardan faollik talab qilish bilan birga, mustaqil kitob o‘qishning ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Xotirani kuchaytirib, imlo savodxonliklarini oshiradi.

3. Dialoglarni modellastirishda kommunikativ rollar almashinuvi tavsiya etildi. Tahliliy faoliyat jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning bir guruhini kitobxon sifatida, boshqa guruhini muallif sifatida vazifalar bajarishlarini va ijodiy matn yaratish faoliyatida matn yaratuvchilar hamda ekspert mutaxassislar rollarini taklif qiladi.

4. Matn bilan ishlash faoliyati uchun motivatsiyani shakllantirish quyidagilarga yordam beradi: matnlarni tegishli tanlash, o‘quvchilarning o‘spirinlik davrida zamonaviy qiziqishlari va ehtiyojlariga muvofiq mavzular hamda ushbu yoshga tegishli hayotiy muammolarga to‘xtaladi. Muammoli vaziyatlar taklif etiladi: “Men o‘z vaqtida kechirim so‘rash qanchalik muhimligini tushundim. Siz hech shunga o‘xshash vaziyatga tushganmisiz?”, “Do‘stingiz bilan qanday qilib yarashgansiz?”, “Buni faqat haqiqiy do‘st qila oladi. Sizning do‘stlaringiz bormi?”, “Siz tabiat manzaralariga maftun bo‘lganmisiz?”.

5. Ta’lim dialoglari davomida o‘quvchilarning faol so‘z boyligini oshiruvchi atamalardan keng foydalaniladi. Ilmiy tafakkurni rivojlantirish talablariga rioya qilish maqsadida matn nazariyasi sohasidagi nutqning aniqligi, ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi

uzluksizlikni, shuningdek, ta'lim dialoglarining samaradorligini ta'minlaydi, chunki yagona terminologiyadan foydalanish ta'lim aloqasini osonlashtiradi.

O'quvchilar qiziqarli, o'zgaruvchan jarayonlarga juda tez kirishadilar, o'z g'oyasini amalga oshirish uchun ijodning to'liq erkinligida aniq munosabatlar bildirishadi: "Sevgan asaringni topib o'qish qanday yaxshi!", "Men bundan oldin har bir inson mo'jizalar yaratishi mumkinligiga ishonmagan edim".

6. Tahliliy matn faoliyatida motivatsiya maqsadida muloqot metodlarini tashkil etishda, poliloglardagi asosiy rollarni bajonidil qabul qilgan o'quvchilarning o'zlariga asta-sekin ishonib topshiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarga mustaqil ravishda reja tuzish, ya'ni yaratilayotgan matnlarning nutq turiga qarab tuzatishni taklif qilsa; hamkorlikda tahliliy matn faoliyatida ishtirok etish uchun variantlarni tanlash (guruhda, juftlikda, yakka tartibda; kitobxon, muallif, ekspert sifatida); ish turini tanlash va uning natijalarini taqdim etish uchun javobgarlikni olish; barcha bosqichlarda o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholashlari ta'minlanadi.

O'quvchilarga tasavvur etish imkonini beruvchi "Yozuvchiga xat" mashq turi ham yuqori darajadagi samaradorlikni beradi. O'quvchilar "Kitobxonlar" — "Yozuvchilar" guruhiga bo'linadi. "Kitobxonlar" "Yozuvchilar"ga nima haqida o'qishni istashlarini, qanday muammo haqida tashvishlanishlarini aytib maktublar yozishadi, qiziqish sabablarini tushuntiradilar, qiziqtirgan mavzu haqida aniq nima bilmoqchiligini ifodalab beradilar. Maktublar "Yozuvchilar"ga o'tganda, ular kitobxonlar istaklarini inobatga olgan holda matnlarni yaratadi. "Yozuvchilar"ning vazifasi nafaqat o'z fikrini bildirish, balki kitobxon "buyurtma"si hamdir, ya'ni qaysi muammoda fikr bildirilgan bo'lsa uni yoritish bo'ladi. Boshqa turdagi "Yozuvchiga maktub" o'qilgan asar muallifiga maktub yozish tashkillashtirilish ham mumkin, unda o'quvchilar muallif tomonidan bildirilgan fikrlarni, yetkazilgan his-tuyg'ularni tushunishlarini bildiradi, hatto bahslashishadi, e'tiroz bildirishadi, kelishishadi va uning mahoratiga tan berishadi, shuningdek, o'z hayotlaridan o'xshash hikoyalar aytishadi.

Matn yaratishda muallif faoliyati motivini muhokama qilish.

O‘quvchilar bilan hamkorlik shaklidagi jamoaviy munozara tashkil qilinib: yozuvchi o‘z asari bilan kitobxonga qanday g‘oyani yetkazmoqchi bo‘lganligini (unga nimani o‘rgatmoqchi bo‘lgan, qanday muhim tajribalar almashish uchun, qanday his-tuyg‘ularni yetkazish, nimaga chaqirish, nimadan ogohlantirish, nimaga e’tibor berish kerak, nimadan sevinish, nimadan qayg‘urish kerakligi haqida va boshqalar) aniqlash topshiriladi. Vazifaning taqdimoti, o‘quvchilarga bir-birini diqqat bilan tinglash, tushunish, sinfdoshlarning javoblarini to‘ldirish, tuzatish aniqlashtirish kabi samarali natijalar beradi. Bu usul tahliliy faoliyatning birinchi bosqichi uchun mosdir. Ushbu jarayon ahamiyatini o‘quvchi ongli his etganda: “Muallif nimani tushunishga yordam beradi?”, “Bu matndan nimani o‘rganish mumkin?”, “Qanday holatlarda muallifning maslahatidan foydalanish mumkin?” kabi masalalarni muhokama qilishni osonlashtiradi. O‘quvchilarning javoblari matnni idrok etish va xulosalarini umumlashtiradi.

Matn yaratishda o‘quvchilarning fikrlarini tarmoqlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon ularda tizimli va izchil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Fikrlarning tarmoqlanishi, ya’ni klaster bu pedagogik strategiya bo‘lib, u ko‘zlangan maqsadga erishishga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq, ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda ishlashga o‘rgatadi.

I. Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:

1. Badiiy adabiyotga murojaat etilib, o‘quvchilar an’anaviy mavzu va obrazlarni ketma-ket yozib tahlil etadilar.

2. «Moziyga sayohat» uyushtirilib, ma’naviy meroslarimizdan birin-ketin namunalar keltiradilar.

3. O‘zaro bog‘liqligi ahamiyatga olinadi.

Mumtoz adabiyotimiz namunalaridan foydalanib “qoliplovchi – qoliplanuvchi” usulidan matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda foydalanilganda o‘quvchilar motivatsiyasini oshiribgina qolmay ularda onglilikni ta’minlaydi. Zamon talabiga mos, muammoli vaziyat talab etiladigan matn havola qilinsa, o‘quvchilarda mavzu doirasida muammoni bartaraf etishga qaratilgan matnlar yaratib, taqdim etishlari faollashadi. 7-

sinflarda bu jarayonning musobaqa tarzida uyushtirilishi yanada qiziqarliroq va maqsadga muvofiq bo'ladi. 8-9-sinflarda muammoli vaziyatni bartaraf etish maqsadida tashkillashtiriladi. O'quvchilarga yoshi muammosiga bog'liq matn taqdim etilib va barcha ishtirokchilar bu muammoli vaziyatda yordamga chaqiriladi.

Yuqori sinf o'quvchilarida uchraydigan kasb tanlash muammosida vaziyatga quyidagicha yondashish mumkin. O'qituvchi tomonidan qoliplovchi matn taqdim etilib, o'quvchilarga muammoni yechishda taklif va maslahatlarini yozib berishlari tashkillashtiriladi.

Bu jarayon yakka tartibda ham, hamkorlikda ishlash metodida ham yaxshi samara beradi. O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, qaysi guruh ko'proq dalil keltirish musobaqasi uyushtiriladi. Guruh ishtirokchilari mavzu doirasida badiiy asarlardan hikoya va rivoyatlardan namunalar topib, guruh sardoriga topshirishadi. Barcha namunalar asosida qoliplanuvchi matnlar tuziladi. O'quvchilar katta ishtiyoq bilan ijod etadilar. Matn yaratishga qiziqishlari ortadi. Ularning o'z xohishlari bilan bajarilgan yozma ishlarda, kashf etish layoqatlari rivojlanadi.

Matn yaratish samaradorligi o'qituvchining metodlarni mukammal bilishi, metodni tanlay olishi va ularning har birini o'z o'rnida qo'llay olishiga bog'liqligi aniqlanadi.

Ijodiy bayon, insho, diktant hamda matn yaratish kabi ish turlarini ta'limiy maqsadda yaxlitlash mumkin. O'quvchilar e'tiboriga, voqealar rivoji oxiriga yetmagan matn taqdim etiladi va mazmuni to'ldirilgan holda davom ettirish, ya'ni ijodiy bayon yozish tashkillashtiriladi. Taqdim etilgan matn I yoki II shaxs tilidan bo'lib, shu uslubda davom ettirilib, bayon yoziladi. Ushbu bayon matni bilan keyingi darsda III shaxs tilidan insho yoziladi. O'qituvchi tomonidan tekshirish maqsadida daftarlar yig'ib olinadi va tekshirish natijasida aniqlangan eng ko'p xato bilan yozilgan so'zlardan lug'at diktanti olinadi. Ishimizda interfaol metodlardan inson fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi interfaol strategiya (usul)lardan foydalanildi. Jumladan, O'.X.Muhammedov, M.N.Usmonboeva, S.S.Rustamovlar tomonidan «Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar» nomli o'quv-uslubiy tavsiyalarda ularning 30 dan ortig'ini qo'llash tavsiya etiladi.

Bu strategiyalar soddaligi, o‘ta ommaviyligi va o‘qitish samaradorligi hamda o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish, fikrlash qobiliyatini benihoya rivojlantirishi bilan ahamiyatlidir.

III BOB. O‘QUVCHILARNING MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

3.1-§. Umumta’lim maktablarida matn yaratish kompetensiyasining xususiyatlari.

Matn yaratish jarayoni ishlariga maxsus dastur ishlab chiqildi. Dasturda quyidagi ikki yo‘nalishda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab olindi: I. Matn mavzusini aniqlash va uning qurilishini turli xil shaklda taqdim etish (o‘quvchilar tanlovi bo‘yicha). II. O‘quvchilarning ijodiy matn yaratish kompetensiyasining xususiyatlari.

I. Matn mavzusini aniqlash va uning qurilishini turli xil shaklda taqdim etish (o‘quvchilar tanlovi bo‘yicha).

O‘quvchilarning tahliliy, ijodiy va klaster texnologiyalari asosida matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashni talab qiluvchi quyidagi vazifalarni o‘z ichiga olgan ishlar taklif qilinadi:

1-ishning maqsadi: Idrok etish va talqin qilishga imkon beradigan ko‘nikmalarni shakllantirish.

Darslikda keltirilgan “Oqbo‘yin” matni asosida hikoya, badiiy, ilmiy matn turlari bo‘yicha matn yaratiladi. Avvalo, taqdim etilgan matn hikoya, badiiy va ilmiy uslublarga bog‘lab talqin qilinadi, keyin ixchamlashtirilib, sodda ko‘rinishda matn turlari qayta yaratiladi.

Uch matnning har biri uchun, nutq uslubidan qat’iy nazar, quyidagilar bilan bog‘liq vazifalar ishlab chiqildi: a) mavzuni yoritgan dalillarni idrok etish va talqin qilish hamda har bir matnning (asosiy fikrni yorituvchi) konseptual ma’lumotlari, b) muallifning kompozitsion yechimlarini tahlil qilish.

O‘quvchilar ushbu vazifalarga muvofiq nutqning yetakchi turini, mavzuni va har bir matnning asosiy g‘oyasini aniqlaydilar; mavzuni yoki asosiy fikrni yorituvchi sarlavhalarni tanlaydilar. Hikoya matni materialiga asoslanib, parchani xatboshilarga ajratish va mikromavzularni yorituvchi reja tuzish vazifasi beriladi.

2-ishning maqsadi: Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish, ya'ni mantiqiy va ijodiy faoliyatlar: g'oyaning shakllanishi va yaralishini tekshirish.

2-ish ikki qismdan iborat: 1) g'oyani shakllantirish va rejalashtirish; 2) rejaga muvofiq g'oyani yaratish.

3-ishning maqsadi: Sharq mumtoz adabiyotida shakllangan, bugungi kunda unitilayozgan qoliplovchi va qoliplanuvchi usullaridan foydalanib, “kasb tanlash” bilan bog'liq muammoli vaziyatni bartaraf etish.

O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda klaster metodiga murojaat qilamiz.

OQBO'YIN

Oqbo'yin notanish hidni darrov ilg'adi. Parvo qilmadi. Tovuq patini o'ynashda davom etdi. Patni ertalab topgan, nimaligiga aqli yetmay boshi garang edi. In yonidagi chirik xashaklar ustida cho'zilib yotgan ona it bezovta g'ingshiganidan so'nggina qadam tovushlari kelayotgan tomonga o'girildi. Besh odimcha narida uy egasi – Sodiq aka bilan norg'ul bir odam – Karim podachi, egnida yag'iri chiqqan paxtalik, oyoqlarini kerib turardi. Undan go'ng, pichan, silos va yana allambalolarning hidi anqirdi.

Oqbo'yin bu xil tashriflarga ko'nikkan, har keldi-ketdidan so'ng og'a-inilaridan birortasi g'oyib bo'ladi, keyin onasi tuni bilan g'ingshib chiqadi. Karim podachi oyoqlari ostida o'ralashayotgan inisi – Oqto'shni qo'liga olib, obdan paypaslab ko'rdi, panjalarini diqqat bilan ko'zdan kechirdi. Yoqtirmadi. Oqto'sh nari ketishni xayoliga ham keltirmay, tag'in suykala boshlagandi, Karim podachi etigi uchi bilan turtib yubordi. Joni og'rigan Oqto'sh angillagancha onasi tomon pildirab qochdi. Karim podachi – sinchi, itni farqlay biladi.

Umri fermada o'tgan bu odam itni ishqibozlik uchun emas, zarurat yuzasidan asraydi. Negaki, qish kezlari qir oshib keladigan bo'rilardan kuygan – jondor desa yetmish yetti tomiri tortishadi, bo'rilarga yemish bo'lgan tomday-tomday novvoslari ko'z oldiga kelib, ichi-tashi baravar yonadi. Avvallari ahvol aytarli darajada yomon emasdi, salgina po'pisa-yu qutqu bilan jondor zotini daf etmoq mumkin edi. Ammo uch yil burun Yoldor degan bir maxluq paydo bo'ldi-yu podachidan halovat ketdi. Arloni

bo'ri itlarni pisand qilmaganidek, miltiqqa ham osongina chap berardi. Tunlari bo'ri poylayverib, biqinini shamollatib qo'yganidan so'ng, Karim podachi qopqon qo'yib ko'rdi. Biroq Yoldor qolib, qopqonga ferma tevaragida aylanib yuradigan daydi eshaklardan biri tushdi. Etni dorilab yo'lga tashladi. Yoldor emas, iti zaharlanib o'ldi. Keyingi asragan iti esa g'oyat yuraksiz chiqdi. Yoldorning qorasini ilg'ar-ilg'amas eshik tirnab, g'ingshigancha ichkariga intiladi, ba'zida qishloqqa qochib qolardi... Shundan buyon podachi yaxshi it qidirib yuradi[195. 78-79.].

Turli matnlar mavzusini aniqlash va matn mavzusini shakllantirishni jamoaviy bajarish tavsiya etiladi, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchi ko'magida o'quvchini teran pedagogik qo'llab-quvvatlab ishlatish lozim. Bu, o'z navbatida, mantiqiy fikrlash, idrok etish va muammoli munozarani qurish qobiliyati bilan bog'liq tarkibiy elementlarni ta'kidlash uchun: tezis, isbot, xulosa yetarli rivojlantirilishini talab etadi. Fikrlashning bu xususiyatlari o'qitish markazida bo'lishi kerak.

1. Topshiriqning bajarilish natijalari, o'quvchilarda har xil turdagi matnlar mavzusini aniqlash qobiliyatini shakllantirish zarur.

2. Matnning asosiy g'oyasini aniqlash va uning mustaqil tanlangan shaklini taqdim etish.

Asosiy g'oyani aniqlash qobiliyati quyidagi bilimlarga ega bo'lishni anglatadi:

- asosiy fikr-matnda mavzuga oid nima deyilgani, yaratilgan matnni ifodalash uchun fikr;

- mavzu bo'yicha ifodalangan va umumiy fikrga, asosiy g'oyaga bo'ysundirilgan muallifning(qahramonning) fikrlari, hissiyotlari va g'oyalarni ifodalashga faktik ma'lumotlar bilan birga konseptual ma'lumotlar mavjudligi.

Asosiy g'oya axborotni faktik farqlash qobiliyatini o'z ichiga oladi va konseptual axborot-g'oyalar, umumiy g'oyaga bo'ysunuvchi muallifning (qahramonning) hissiyotlari va g'oyalari.

Bu bilim va ko'nikmalarga tayanib, o'quvchilar kalit so'zlar, iboralar va jummalarni belgilaydilar, umumlashtiradilar va sharhlaydilar; umumlashtirish va izohlash asosida "Matnning asosiy g'oyasi nima?" degan savolga javob shakllantiriladi.

Axloqiy muammolar bilan bog'liq matnlarni tahlil qilishda o'qituvchilar ishining samaradorligini ta'minlashga ham hikoya matnidagi vazifalarga jiddiy e'tibor zarur. Hikoya matnini tahlil qilish jarayonida o'quvchilardan matnning ikki xatboshisidan asosiy g'oyani aniqlashga yordam beradigan so'zlar va jumalarni topish zarur.

O'quvchilar matn bilan ishlash jarayonida tayanadigan tegishli tushunchalarni ishlab chiqishga qaratilgan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tayyor matnga sarlavhani tanlash qobiliyati matnning tarkibiy elementi sifatida sarlavhaning o'ziga xos xususiyatlari bilimlarini nazarda tutadi. O'quvchilar quyidagi:

- sarlavhada matn mavzusi yoki uning asosiy g'oyasi aks ettirilishi kerak;
- sarlavha mavzuning aks etishi yoki asosiy g'oyaning ifodalanishiga hissa qo'shadigan maxsus shaklga egaligi;
- sarlavha matnning mazmuni, matn turi va uslubi bilan bog'liq bo'lishi kerakligini bilishlari zarur.

O'quvchilar quyidagi xususiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

- hikoyaning ta'sirchan nomini va mavzuni aks ettirish yoki asosiy g'oyani ifodalash uchun so'roq yoki motivatsion jumla tuzish;
- sarlavha uchun tegishli tarkibni, matnning asosiy g'oyasi yoki mavzuni aniq va qisqacha yoritadigan matn turini, uslubini tanlash;
- refleksiyaning amalga oshirish: kitobxon idrokining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish (qiziqish uchun sharoitlar, matn o'qish istagi, sarlavha bo'yicha matn mazmuni haqida tasavvur hosil qilish istagi).

Tayyor matnga sarlavha tanlash bilan bog'liq topshiriqlar, o'quvchilarning matn turlari uchun sarlavha tanlash qobiliyatini shakllantiradi.

Matn turini aniqlash.

Matn turlarini aniqlash qobiliyati matn turlari vazifalarini bilishni nazarda tutadi, tarkibi, tuzilishi va foydalanilgan tayanch so'zlarning asosiy xususiyatlarini, muallif matnlarining turli funksional va semantik turlarida kommunikativ munosabatlarni aniqlaydi. Maxsus ko'nikmalar sifatida:

- matn turini aniqlash uchun savollar: (“Nima?”, “Nima uchun?”, “Nima bo‘ldi?”).
- matnning funksional va semantik turini aniqlash uchun “suratga olish” texnikasidan foydalanish;
- matnning funksional va semantik turlariga xos kompozitsion elementlarni aniqlash;
- matnni ma’lum bir nutq uslubiga tegishliligi xulosasi uchun tayanch so‘z va iboralarni aniqlash.

Mulohaza matnlarini idrok etish va tahlil qilishni o‘rgatish fanlararo vazifa bo‘lib, og‘zaki va yozma shaklda mazmunini o‘zlashtirish kommunikativ va kognitiv jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Mulohaza matnlarini maqsadli yaratish haqidagi g‘oyalar yetishmasligi muammosini quyidagi vazifalar tahlili yanada aniqroq ochib beradi.

O‘quvchilarning matn turini aniqlash qobiliyatini shakllantirilishi.

Matnning tipik va kompozitsion-semantik qurilishini aniqlash.

Ushbu ko‘nikmaga ega bo‘lish quyidagi bilimlarni nazarda tutadi:

- g‘oyani yaratish vazifasidan aniqlangan kompozitsiyaning xususiyatlari;
- har bir matn turi mustaqil tipik tuzilishga ega;
- xatboshi matn qismlarini kompozitsion va semantik ajratish vositasidir;
- matn qismlari, xatboshilar o‘rtasida grammatik va leksik vositalardan iborat semantik va grammatik bog‘liqlik mavjud.

Bu umumiy qobiliyat bir qator xususiy mahoratlarga tayanadi:

- matnning kompozitsion qismlarga bo‘linishini asoslash;
- tavsifiy, hikoya mulohaza matnning tipik tarkibiy qismlarini aniqlash;
- o‘rnatilgan semantik va grammatik aloqaning xususiyatini aniqlash;
- kompozitsion qismlar, xatboshilar, gaplar va matn jummalari, qismlari o‘rtasida aloqa vositalarining grammatik aloqa va semantik xususiyatlarini aniqlashtiradi.

Ishning birinchi qismida tavsif matnidagi mavjud xatboshilarni asoslab berish tashkillashtiriladi.

Mulohaza matnni tahlil qilish katta hajm, katta ma'lumotga to'yinganligi tufayli yuqori darajada murakkablikda ishlashni talab qiladi. Murakkab kompozitsiya: bir nechta semantik qism ichida yaratilgan xatboshilar, ular o'rtasida muallifning maqsadiga ko'ra semantik munosabatlar o'rnatiladi. O'quvchilar mulohazaning: tushunchani aniqlash, tasdiq (tezis), tasdiqni tushuntirish, xulosalash kompozitsion elementlar, *gap shundaki*, *shuning uchun* kabi bog'lovchi, matn yaxlitligini ta'minlovchi mulohaza qismlarini e'tibordan qochirmasliklari zarur. Hikoya-matnni tahlil qilishda o'quvchilar belgilangan semantik qismni bo'lish kerak. Bunda vazifaning ikki qismli tuzilishini yaratishga: o'quvchilardan matnning ikki xatboshisi o'z ichiga qancha kichik mavzu olishini aniqlashtirish talab etiladi.

Kompozitsion, semantik va tipologik tuzilishini aniqlash bilan bog'liq tahliliy vazifalar o'quvchilarning matnni bo'lish, jumlar hamda matn qismlarining aloqa vositalarini topish ko'nikmalarini shakllantiradi.

II. O'quvchilarning ijodiy matn yaratish kompetensiyasining xususiyatlari.

O'quvchilarga 2-ishni taklif qilib, matn yaratish kompetensiyasiga asoslanadigan ko'nikmalarini baholash bilan bog'liq vazifalar:

1. Yaratilgan matn mazmunini mavzuni ochib berish vazifasiga bo'ysundiriladi.

Bu quyidagilarni bildiradi:

- mavzu tanlashda o'quvchilarning o'z imkoniyatlari darajasini ijodiy g'oyalar bilan ishlatish;
- o'quvchilar matnni tegishli mazmun bilan bajarish uchun hissiy tajribaga jalb qilish uchun refleksiv ko'nikmalar shakllantirish;
- o'quvchilarda mustaqil matn yaratishda egallagan tajribasini qo'llash;
- o'quvchilar vazifani mexanik va ijodiy bajarilishini farqlashlari zarur;
- o'quvchilarning matn turlarini yaratish qobiliyatini shakllantirishda matnni tahlil qilish va qurish bo'yicha dalillarni tanlash va asoslash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

O'quvchilarning muayyan matn mavzusini shakllantirishga beparvo munosabati keyinchalik mustaqil ravishda matn yaratishda, mavzu mazmunini yoritish jarayonida shakllanadigan tegishli ko'nikmalarda aks etadi.

O'quvchilar matnlarini yaratishda mavzudan chetga chiqishi kichik mavzularni matn mavzusi bilan bog'lab va ulanish xususiyatini aniqlash orqali muallif matnidagi mavzu rivojini ajrata olmaslikda yotadi. Mavzuni matn turi bo'yicha to'g'ri aniqlash qobiliyati, o'z matnini yaratish uchun berilgan mavzuni aniqlashtira olishga tayanadi.

Bu yana bir bor matnni idrok etish va talqin qilish bo'yicha olib boriladigan ishlar ijodiy matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish bilan integratsion bog'langan holda tizimli tashkil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, matn qismlari mazmuni emas, balki butun matn mazmunini aks ettirish zaruratini hisobga olgan holda, matn mavzusini aniqlashni va umumlashtirishni o'rgatish zarur. Asosiy mavzu doirasi yoki mustaqil yaratiladigan matn mavzusi, butun matnning mazmuni va har bir qism mazmuni asosiy mavzuga mos kelishi va uni ochishi kerak degan tushunchaga tayanadi.

Mustaqil fikrlashning yetishmasligi, cheklovlar va o'quvchilarning berilgan mavzuga cheklangan munosabati, mavzu bo'yicha topshiriq va materialning bir xilligidir. O'quvchilarning ishlarida berilgan mavzudan qat'i nazar, bir xil birliklar uchramasiligini ta'minlash ustuvor vazifalardandir.

Bu birinchi navbatda o'quvchilarning matn bilan ishlashning dastlabki bosqichlari, matnlar tahlilida hissiy-tarbiyaviy tajriba va mustaqil matn yaratish hamda ushbu tajribani mazmun va kompozitsion-nutq shaklida aks ettirish uchun o'z matnlarida mahorat zarurligini ochib beradi.

Muayyan matn mavzusini shakllantira olmaslik asosiy g'oyani shakllantirishda aniqlanadi.

2. Yaratilgan matn mazmunini asosiy g'oyani ifodalash vazifasiga bo'ysundirish.

Asosiy g'oyani aniqlash bilan bog'liq qiyinchiliklar ijodiy matn yaratish kompetensiyasi shakllantirish faoliyatida namoyon bo'ladi. Ijodiy matn yaratish

kompetensiyasini rivojlantirish bilan bog'liq asosiy g'oyani aniqlovchi matn bilan ishlashda bajariladigan, g'oyani yoritish orqali matn yaxlitligini ta'minlash: mazmun tanlash, matn turini tanlash va asosiy g'oyani ifoda etish kompozitsion yechimlariga bo'ysunadi.

Umuman, matn tahlili matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini faollashtiradi, ushbu faollashuv darajasi bevosita muvaffaqiyat bilan bog'liq. Shu munosabat bilan matn mazmunini, turlarini aniqlash va idrok etish uchun zarur bo'lgan barqaror ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan har soatda tizimli maqsadli ish olib borish zarur.

O'quvchilarning matn mazmunini asosiy g'oyani ifoda etish vazifasiga bo'ysundirish ko'nikmasini shakllantiradi.

Sarlavhani tayyor yoki rejalashtirilgan matnga tanlash.

O'quvchilarni sarlavha tanlash jarayonida sarlavhada mazmunni aks ettirmaydigan, matn mazmunini aniqlashga imkon bermaydigan va kitobxonni muallif g'oyasiga qiziqтира olmaydigan sarlavhalar qo'yishdan ogohlantiruvchi tavsiyalar bilan tanishirish zarur.

O'quvchilarning o'z mustaqil matnlariga sarlavha tanlash ko'nikmasini shakllantirish lozim.

Fikrni amalga oshirish uchun ma'lum bir nutq (uslub) turini qurish.

Ijodiy matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda o'quvchilar rejalashtirilgan matnning turini mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'lish zarur. Bu yana bir bor matn tushunchalarini o'zaro munosabatlarda, mavzu va asosiy fikrni maqsadli qo'yib tahlilga ongli yondashish, shuningdek, tahlil bilan matn yaratishni o'zaro integratsion bog'lab o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

Matnning formal-kompozitsion va kompozitsion-semantik rejasini qurish va amalga oshirish. Matnni xatboshilarga bo'lish.

O'quvchilarning tayyor yoki nisbatan tugallangan matnni tahlil qilishda matnning formal-kompozitsion va kompozitsion-semantik rejasini aniqlash bilimlaridan tashqari, o'zlari mustaqil matn yaratishda mavzuni ochib berish hamda asosiy fikrni ifodalash nafaqat mazmuniy to'liqlik vazifasiga, balki matnning tipologik

tuzilishini hisobga olgan holda mikromavzularning joylashuvi va ular o'rtasidagi semantik, grammatik munosabatlarga bo'ysunishi kerakligini tushunishi muhimdir.

Umuman olganda, o'quvchilar kirish mavzuga yondashuvlarni ta'minlaydigan kompozitsion element sifatida va yakunlash ma'lum bir umumlashmalarni o'z ichiga olgan kompozitsion qism sifatida xulosalash, matnning barcha turlarida munosabat va o'z bahosini ifodalay olishlari zarur.

O'quvchilarga mulohaza matnlarni tuzishga qo'yilgan talablar allaqachon boshlang'ich sinflardan boshlab o'qitish maqsadlarida berilishi zarur.

Og'zaki nutqning yozma nutq bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanganligi yozma nutq rivojlanishiga tayanadi va ijodiy matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish faoliyati matn tahlili bilan birgalikda rivojlanadi, mulohaza matnlarini idrok etish, talqin qilish va qurishga e'tiborni oshirish uchun matn bilan ishlash mazmunini qayta ko'rib chiqish kerak, degan xulosaga kelish mumkin.

O'quvchilarga sinonimlardan, kontekstual antonimlardan, ko'rsatish olmoshlardan o'rinli foydalanishga o'rgatish talab etiladi. Bu matnning izchilligini ta'minlovchi leksik va grammatik vositalardan foydalanish qobiliyatini shakllantirish bo'yicha maxsus ish uchun ehtiyojni bildiradi.

O'quvchilarning ijodiy matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish faoliyati o'quvchilarning matn turlaridan kompozitsiya tuzish qobiliyatiga bog'liq.

Mustaqil yaratilgan matnlarni tahlil qilganda, biz matn qurilishining tafsilotlariga e'tiborimizdagi asosiy ustuvorlik matnning tarkibi: mavzu, asosiy g'oya, sarlavha, tarkib muallifning ishi sifatida ko'rilishida bo'ldi. O'quvchilar, avvalo, ijodiy jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini yangi narsa yaratish deb tushunib, ularning har biri o'zining ijodiy imkoniyatlarini o'zi ta'minlashini tushunishi kerak. Shu bilan birga, ijodiy matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda, matn bilan ishlashga o'rgatishda, kompozitsion-matn xususiyatlari tahlili amalga oshirilishi shart. Masalan, xatboshilarga ajratilgan matn, ajratilmagan yoki nomuvofiq ajratilgan matnlardan qanday farq qilishi haqida munozaralar uyushtirilsa o'quvchilarga taqqoslab o'rganishga sharoit yaratiladi.

3.2-§. Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida mustaqil ishlashga mo'ljallangan vazifalar tizimi

Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida quyidagi vazifalar tizimi tashkillashtirildi: birinchi va ikkinchi vazifalar guruhi tahliliy matnli faoliyatni o'zlashtirishga qaratildi, uchinchi va to'rtinchi guruhlarining vazifalari matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratildi.

Tahliliy faoliyatga yo'naltirilgan vazifalar:

1. Matn nazariyasi asoslarini o'zlashtirish: asosiy tushunchalarni ongli idrok etish.
2. Idrok etilgan tushunchalarni tahliliy faoliyatda foydalanish.

Ijodiy matn yaratishga yo'naltirilgan vazifalar:

3. Namunada berilgan matn elementlari va matn bilan muvofiqligi.
4. O'z matnini yaratish.
5. Qoliplovchi va qoliplanuvchi usulida matnlar bilan ishlash va shu usulda yaratish.

Birinchi guruh vazifalari matn bilan ishlash nazariyasi asoslarida bajarildi. O'quvchilar oldiga quyidagilarni qo'llash zaruratini qo'ydi: birinchi guruh vazifalari: "matn turi, nutq uslubi", "mavzu", "keng va tor mavzular", "tayanch so'zlar", "kalit so'zlar", "asosiy g'oya", "kompozitsiya", "kompozitsion qismlar" kabi nazariy tushunchalar va atamalarining xususiyatlarini tushunishni shakllantirdi.

2. Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida mustaqil ishlarga vazifalar tizimi tashkillashtirildi.

Ishlab chiqilgan vazifalar tizimining xususiyatlari matn yaratish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish maqsadiga bo'ysindirilgan. Tajriba jarayonida vazifalar tizimi sinovdan o'tkazildi: birinchi vazifalar guruhi tahliliy matn faoliyatini o'zlashtirishga, ikkinchi guruh vazifalari matn yaratish faoliyatini rivojlantirishga, uchinchi guruh vazifalar tizimi klaster usulidagigi vazifalarga qaratilgan.

Muallifning kommunikativ niyatini amalga oshirishda tushunchalar ketma-ketligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyati "matn turi" tushunchasi barqaror takrorlanadigan vosita sifatida ustundir.

Har bir o'quvchining motivatsiyasini rivojlantirish uchun vazifalar tizimi individual bajarildi. Individual yondashuv har bir o'quvchi vazifani ongli his etish va mustaqil bajarishni ta'minlaydi.

7-9-sinflarda egallangan bilim va ko'nikmalarning mustaqil faoliyatda foydalanish barqarorligi hamda foydalanish imkoniyati natijalarini kafolatlagan vazifalar tizimi shakllantirildi.

Vazifa. Matn turini aniqlang. Qaysi texnikani vazifa bajarishda sizga yordam berganini tushuntiring.

OVCHI VA KAKLIK

Bir ovchi kaklik tutib olibdi. Uni o'ldirmoqchi bo'lgan ekan, kaklik: «Meni ozodlikka qo'yib yubor, – deb yalinibdi. – Agar meni tirik qoldirsang, evaziga to'ringga juda ko'p kakliklarni ilintirib beraman», – debdi. Ovchi kaklikni qo'yib yuborishga moyil bo'lib turgan ekan, ammo uning gapini eshitgach g'azablanib shartta o'ldiribdi [196. 51].

Muloqot davomida o'quvchilar matnni tahlil qilib, uning quyidagi xususiyatlariga diqqat qilishadi:

- a) matnga qanday sarlavha qo'yilishi mumkin? (Xalqiga xiyonat);
- b) muallif xiyonatni qanday jazoladi;
- c) mavzuga mos tayanch so'zlar sifatida (sotqinlik, xiyonat, jazo, g'azablanish, qayg'uli, ozodlik) so'zlari ishlatiladi.

Shunday qilib, o'quvchilar matn turini uning asosiy maqsadi, mazmunini bir necha interfaol metodlar va usullar bo'yicha aniqlaydilar. Matnni tahlil qilishda barcha o'quvchilarni baholashning muhim mezonlari muloqot jarayonida o'qituvchining maxsus metodi bilan bajariladi.

2) Quddus Muhammadiyning shogirdlari bilan uchrashuvi.

Ustoz bizning "Qo'ying" deyishimizga qaramay, dasturxon tuzadi, choy damlab keldi.

Dasturxonga qo'yilgan noz-ne'matlar ichida shakar borligini sezibmi qayerdandir chumoli paydo bo'ldi. Hatto yuzimda ham o'rmalayotganini sezdim. Hamza ham sezdi, shekilli, ikkalamiz xuddi kelishib olganday, chumolini olib tashlashga qo'l cho'zdik.

- Qo'yaveringlar. Tegmanglar, ozor bermanglar. O'zlari tushib ketadi. Ularning ham biz kabi o'z uyi, oilasi, bolalari bor. O'ldirib qo'ysak, inson nomimizga dog' tushadi, - dedi ustoz. (H.Murodov) [196]

Jarayon uchun maxsus ishlab chiqilgan usullardan biri matn bilan ishlash va tajriba jarayonida sinovdan o'tkazilgan usul matnning ba'zi komponentlaridan muhim elementlarni "Suratga olish" edi. Jadvalni to'ldirishda, o'quvchilar fotosurat kadrlarini namoyish etadi va belgilarning ketma-ket harakatlarini yozib oladi. Natijada jamoaviy ishdan quyidagi "kadrlar lentasi" chiqadi.

Surat 1	Surat 2	Surat 3	Surat 4
Uchrashuv	Chumoli	Chumoli oilasi	Inson nomi

Vazifaning ushbu shakli matn tahlili ko'nikmalarini, idrok qobiliyatlarining shakllanishini ta'minlaydi. Matn voqealarini hikoya qilishning ustuvorligini ta'kidlab, ishlab chiqilgan boshqa usul ham yordam beradi. Buning uchun o'quvchilar to'rt guruhga bo'linib, har bir guruh, yordamida harakatlarni rivojlantirish mantig'iga muvofiq pantomima yordamida vaziyatini ko'rsatadi.

Quyidagi vazifalar matn turlarini kompozitsion sxemalari bilan o'zaro bog'lash qobiliyatni shakllantirishga qaratilgan. Natijada, matn turlarining xususiyatlari, taxmin qilinganidek, semantik barqaror g'oyaga aylanishi kerak.

Vazifa 1. Matnlarning har biri matnning qaysi turiga kiradi? Fikringizni asoslang. 2. O'ng ustundagi turli matnlarni qurish sxemalarini ko'rib chiqing va matnga mos ravishda ko'rsatilgan kompozitsiya elementlarini toping. 3. Har bir matndagi xatboshilar sonini hisoblang. Tushuntirishga harakat qiling: nima uchun har bir xatboshi ta'kidlangan.

Matnlar	Matnlarning tarkibi xususiyatlari
Yorqin sariq barglar bilan qoplangan daraxtlar kuz quyoshida porlaydi oltinga botirilgan kabi. Havo toza va sookin. Moviy suvli daryo irmogʻi, goʻyo uzoqlarga yuguradi	Obyektning umumiy xususiyatlari Tafsilotlar taʼrifi
Inson kun davomida jismoniy mashq bajarish kerak. Jismoniy mashq salomatlik garovi. Mashqlardan keyin oʻquv vazifalarini juda tez bajaramiz: samaradorlik ortadi. Jismoniy mashqlardan keyin kayfiyat koʻtariladi va kun davomida kuch, quvnoqlik va yaxshi kayfiyat bizni tark etmaydi.	Tezis tasdigʻi (isbotlangan) Argumentlar Xulosa
Dunyo neʼmatlariga ahamiyat bermaydigan, oʻzini juda kamtar tutadigan buyuk islom olimlaridan biri faqat bir kishi oʻtishi mumkin boʻlgan tor yoʻlakda shaharning oʻziga bino qoʻygan katta boylaridan biri bilan toʻqnash kelibdi. Qorni kajavaday keladigan boy: – Men bir devonaga yoʻl berib chetga chiqmayman! – deb pishqiribdi. Haligi olim kishi yoʻl berar ekan, gʻoyat sookin ohangda debdi: – Men esa yoʻl beraman! [196. 63]	Voqealar orqa foni bogʻlash Kulminatsiya harakat rivoji Oʻzaro almashinish

Matn tahlili bilan ishlay olish o‘quvchilarining mustaqil ravishda turli xil matnlarni taqqoslash, ulardan foydalanish tavsif, hikoya va mulohazalarning xususiyatlarini bilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shu sababli tahliliy ish natijalari asosida o‘quvchilarga turli matn turlarining kompozitsiyasini tuzish taklif qilinganda, ular matn yaratish va shunga o‘xshash ijodiy ishlarni bajaradilar.

Matn bilan ishlashda quyidagi “Aqliy hujum” metodidan foydalanib savollari berish, ya’ni “Muallif mavzu haqida nima demoqchi?”, “Qanday fikrni yetkazmoqchi?”, “Qanday so‘zlar mavzu yaxlitligini saqlaydi?”, “Qanday so‘zlar asosiy fikrni yetkazishga yordam beradi?” kabi savollar tizimini ishlab chiqish zarur. Chunki, savollar tizimini – ketma-ketligini shakllantirmasdan “tasodifiy” savollar berilsa, o‘quvchilarning katta qismi mavzuni va matnning asosiy g‘oyasini, matn mavzusini chalkashtirib yuboradi, bu esa o‘z yaratadigan, matnining mavzusini ochib bera olmaslikka olib keladi.

Matn mavzusini aniqlash maqsadida quyidagilar shakllantiriladi: “Mavzu bo‘yicha matnlarning sarlavhalarini ajratish”, “Qolganlarga nisbatan kengroq bo‘lgan mavzuni topish”.

Maqsadli muhokama qilingan tizim: savol berish, matndagi havola so‘z va iboralarni, mikromavzularni ta’kidlash, matn va reja tuzish, rejada mikromavzularni aks ettirishdir. Shuningdek, matn mavzusini aniqlash bilan bog‘liq metodlar taklif qilinadi, jumladan, “Ikki yoqlama kundalik” metodida vazifalarning quyidagi turlari bajariladi: Mavzularni berilishiga muvofiq ikki ustunga taqsimlang: “Berilgan mavzuni oydinlashtirish”, “Matn sarlavhalarini tanlab berilgan mavzuga aniqlik kiritish”, “Matnlarni birlashtiruvchi mavzuni nomlash”. O‘quvchilar ularning tarkibidagi farqlar nimada ekanligini tushunib, mavzuni aniqlashadi, har bir matnga sarlavhalar topishadi. Berilgan matnga mos keladigan mikromavzularni, mavzuga mos kelmaydigan mikromavzularni ajratib, belgilangan mavzu bo‘yicha matn rejasini tuzishadi. “Matn mikromavzularini to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirdingizmi?”, “Matnning mikromavzularini aniqlashtiring, xulosalang”, “Matndagi semantik qismni toping, matn mavzusiga mos kelmasa, uni chiqarib tashlang”, “Matndagi semantik

qismlarning nomini aniqlang. Mikromavzularning matn mavzusiga mos kelishiga ishonch hosil qiling” kabi aniqlashtiruvchi savol va topshiriqlar bilan xulosalanadi. Bunday savollarga javob topish ustida tizimli ish, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli bilan mavzuni aniqlashda ongli yondashishga olib keladi va tahlil qilinayotgan matnning mikromavzulari, shuningdek, rejalashtirilgan tarkibni tanlashga muvofiq keladi. Bundan tashqari, berilgan mavzuni aniqlashtirishning turli imkoniyatlarini ko‘rib chiqish faoliyati shakllanadi.

O‘quvchilarda matnning asosiy g‘oyasini aniqlash ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida quyidagi vazifalar taklif qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

“Matnlarning sarlavhalarini o‘qing va ularning qaysi biri mavzu va asosiy g‘oyani aks ettirishini aniqlang”

“Matnni diqqat bilan o‘qing mavzu yoki asosiy g‘oya uning sarlavhasida aks etganmi. Siz nima nom qo‘ydingiz? Sababini tushuntiring”

“Sarlavhada mavzuni aks ettiruvchi nom toping”

“Sarlavhasida asosiy fikr aks ettiruvchi nom toping”

“Matnga ikkita sarlavha qo‘ying: birida mavzu, ikkinchisida - asosiy g‘oya aks etsin”

“Sarlavhadan matn muallifi bizga qanday g‘oyani yetkazmoqchi ekanligini taxmin qiling, keyin o‘qing. Taxminingiz asoslimi?”

“Berilgan mavzu bo‘yicha yozayotgan bo‘lsangiz, kitobxonga qanday fikrlar yetkazmoqchisiz. Tavsiya etilgan matndan asosiy g‘oyani toping”.

Bu savollar o‘quvchilar idrokini shakllantirish kerak, ya‘ni mavzu va asosiy fikr o‘rtasida asosiy farqni ajrata olish kerak. Maxsus mashqlar ishlab chiqildi.

Vazifa 2. Mavzu yoki asosiy g‘oya sarlavhada aks etganligini aniqlang. Javobingizni asoslang.

“Mehribonlik dunyoda hamma narsadan ustun”.

O‘quvchilarga ushbu maqsadni hisobga olgan holda, berilganlarni ajratib olish uchun mavzu va matnning asosiy g‘oyasi haqidagi bilimlaridan foydalanib sarlavhalar topish topshirig‘i berildi. Jamoaviy tanlashni taklif qilib, muammoni yechish uchun kerakli metodlardan foydalanildi. O‘quvchilar savol berish imkoniyatidan

foydalanishib “Matn nima haqida?”, “Muallif matnda mavzu bo‘yicha nima demoqchi edi?” kabilarni aniqlashdi. Ushbu usul berilgan sarlavhalarni farqlashda samarali bo‘ldi.

Matn bilan ishlashda sarlavhada matnning asosiy g‘oyasi va mavzuni aks ettirishi, fikrni tipologik shaklda amalga oshirish yo‘llari bilan bog‘liq tuzilmalar shakllantirildi, o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish tizimiga quyidagi mashqlar kiritildi.

Vazifa 3. Jadvalning katakchalarini to‘ldirish orqali matn g‘oyasini qurish.

Kengaytirilgan mavzu	Kuzda		
Nutqning turi	Hikoya	Tavsif	Mulohaza
Matn mavzusi			
Asosiy fikr			
Sarlavha			

Kuzda bog‘larimiz qanday o‘zgaradi? Kuzda barglar rangini o‘zgartiradi, chunki xlorofill pigmenti kamayadi.

Barglar kuzda rangini o‘zgartirish sababini bilasizmi? Oltin kuzda yurtimiz nihoyatda chiroyli bo‘lib qoladi. Agar har qanday ish birgalikda qilinsa, oson bo‘ladi; Kuzgi bog‘ning go‘zalligi; Bolalar maktab bog‘idagi olmalardan qanday hosil olishdi; Yig‘im-terim; Bunday muhim pigment. Jadvalni to‘ldirishda matn turiga qarab mavzuni shakllantirish xususiyatlarini tushunishadi.

Ushbu vazifalar matn turlarning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Matn mavzusini aniqlash kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishni, matn yaratish faoliyatini rejalashtirish bilan bog‘liq matn bilan ishlashni shakllantirishga nisbatan samarali texnologiyalar ko‘rib chiqildi.

Ikkinchi guruh vazifalari tahliliy matn faoliyati jarayonida o‘zlashtirilgan qobiliyatlardan foydalanishni ta’minlaydi. Tahliliy, ijodiy va klaster matnli faoliyatni o‘qitish moduli integratsion o‘zaro bog‘liqlikda ancha faol shaklda amalga oshiriladi.

O‘quvchilar ijodorlik bilan bog‘liq ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtiradilar, matn yaratishda fikrlari va his-tuyg‘ularini aniq aks ettirish uchun so‘z

tanlashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Bu tayyor matnlar yoki ularning qismlarini yozma hikoyalash uchun o'quvchilarning so'z boyligini boyitishga hissa qo'shadigan qo'shimcha vazifalar kiritishni talab qiladi. Bular, muallif matnlaridan foydalanish orqali matn turini mustaqil ravishda aniqlashdan iboratdir. Quyida atn turlarining kompozitsion va semantik xususiyatlarini aniqlash vazifalari keltirilgan.

Vazifa 4. Matn turini toping va tarkibini tushuntiring.

Bir kuni Amir Temur tez muddatda dunyo qoyil qoladigan madrasa qurib bitirishni niyat qilibdi. Mohir me'morni chaqirib, o'sha kuniyoq ish boshlatmoqchi bo'libdi. Me'mor bunday binoni shoshilinch qurib bo'lmasligini qancha aytsa ham, Amir Temur ko'nabdi. Noiloj qolgan me'mor madrasaning joyini tayyorlab, poydevorini qo'ydirib, bir kechada g'oyib bo'lib qolibdi. Yer-u ko'kni qidirib uni topisholmabdi. Oradan ikki yil o'tgach haligi usta yana paydo bo'libdi-da, darg'azab Amirga:

– Siz istagan muddatda bu binoni qurib bitkazishim mumkin edi, ammo ming go'zal bo'lgani bilan uning umri uzoqqa bormasdi. O'ylanmay qilingan ishning oxiri voy. Siz aytgan binoni qurish uchun o'ylashga fursat kerak edi. Men ikki yil ko'rinmay ketgan davrimda shu haqda o'yladim. Qancha-qancha yurtlardagi qasri oliylarni ko'rib keldim. Ham boqiy, ham go'zal bo'lishi rejalarini tuzdim. Men bir bino yaratmoqchimanki, uning tepasida faqat osmon bo'ladi. Osmon xalaqit bermasa, uni yana ham balandroq ko'tarishim mumkin bo'lardi, – deb javob qilgan ekan 196. [36-37].

Topshiriq: Matnning mavzusi va asosiy fikrni aniqlang.

O'quvchilarga taklif qilingan matnni asoslash talab qilinadi. Argumentlar tartibini ko'rsatuvchi aloqa vositalari va xulosa mavjudligi, hatto past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun ham fikrlash qobiliyatini o'zlashtirish ta'minlanadi.

O'quvchilarning matn bilan ishlash natijalari shuni ko'rsatdiki, mulohaza matnni aniqlashga nisbatan tavsif va hikoyalarni aniqlash ancha oson. Shuni hisobga olgan holda, mulohaza matnlari bilan ishlash jarayonida maxsus o'qitish metodlarini ishlab chiqish zarur. Bu ushbu turdagi matnlar haqidagi ma'lumotlarni kengaytirish va chuqurlashtirish quyidagi ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradi:

a) mulohazalarni boshqa turdagi matnlardan farqlash;

b) mulohazalarning kompozitsion xususiyatlarini tavsiflash: kompozitsion elementlar (tezislar, dalillar, illyustratsiyalar, misollar, xulosa)ni topish va ushbu elementlar orasidagi semantik aloqalarni aniqlash;

v) mavzuni va mulohazaning asosiy g'oyasini aniqlang.

Bunday qiyinchiliklarning oldini olish uchun maqsadli ishlarni tashkil etish, mulohaza matnidagi semantik munosabatlarni aniqlash, matn va matn qismlarini tahlil qilish, semantik munosabatlari turli matnlarni tahlil etish zarur deb hisobladik. Taklif etilgan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi, matn tahlilining muvaffaqiyatiga hissa qo'shdi. O'quvchilar nutqini rivojlantirish yo'lidagi ko'plab to'siqlarni bartaraf etadi.

Shunday qilib, matn tahlilini o'rganish jarayoni o'rtasida semantik aloqalarni o'rnatish qobiliyatini shakllantirish muhimdir. Semantik munosabatlarning mohiyatini aniqlash uchun so'zning vazifalari o'z navbatida gaplar va butun bo'laklar, o'quvchilarni turli xil matnlarni tuzishda so'zlarning tarqalish yo'llari haqida g'oyalar bilan ta'minlaydi. Tajriba davomida, semantik tahlil va o'z matnini yaratishda texnikaning samaradorligi isbotlandi. Bunday ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan vazifalar quyidagicha bo'lishi mumkin.

Vazifa 5. Matn jumalari va xatboshilar orasidagi semantik aloqalarni aniqlang. Buning uchun muallif uni yaratishda bergan savollarni shakllantiring.

KO'RNING JAVOBI

Sayyor ismli ko'r arablar orasida eng mashhur ekan. Bir kuni ko'chada unga tegishib:

– *Hoy, Sayyor, Xudodan tila, ko'zing evaziga biror nima bersin, – debdi.*

– *So'radim – berdi, – debdi ko'r.*

– *Nima berdi?*

– *Senga o'xshagan ahmoqlarning basharasini ko'rmaslikni! [196. 41]*

Taqdim etilgan ushbu vazifalar matn bilan mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, matnni idrok etishga yo'naltiradigan ifodali o'qishning usullari, asosiy

ma'lumotlarni tushunishga hissa qo'shish, jumlar va matn qismlari o'rtasidagi semantik aloqa va farqlarni ajratish va g'oyani tushunishga qaratilgan. Har biriga savollar berish o'quvchilarni muhim xulosalarga keltiradi.

Quyidagi vazifalarning maqsadi o'quvchilarning matn rejasini tashkil etuvchi qismlar va tavsifning xususiyatlarini aniqlash qobiliyatini tekshirishdir.

Vazifa 6. Matnni o'qing, uning tarkibi: kirish va yakuniy qismning maqsadini tushuntiring va isbotlang. Tavsifning asosiy qismi avval mavzuni bir butun sifatida tasvirlaydi, so'ngra muhim tafsilotlarni ta'kidlaydi.

Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotin bilangina emas, umuman, uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa-bo'lsin, uzoq so'zlashib o'turmeydir. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib, uy ichidan birartasining so'zlari va yo kengashlari bo'lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so'zlab beradilar; maqsad aytib bitkandan so'ng sekingina ko'tarilib uning yuziga qaraydirlar.

Hoji bir necha vaqt so'zlag'uchini o'z og'zig'a tikiltirib o'lturg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa, «xo'b» deydir; gapka tushunmagan bo'lsa, «xo'sh» deydir; noma'qul bo'lsa, «durust emas» deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa, bir iljayib qo'yish bilan kifoyalanib, mundan boshqa so'z aytmaydir va aytsa ham, uch-to'rt kalimadan nariga oshmaydir. Uy ichi uning bu fe'liga juda yaxshi tushunganliklaridan, ko'pincha, bir og'iz javob olish bilan kifoyalanadirlar.

Ammo Otabek bilan birar to'g'rida so'zlashmakchi bo'lsa, uni aksar mehmonxonaga chaqirib yoki chaqirtirib oladir [196. 73].

Ushbu turdagi vazifalar matnning formal kompozitsion rejasini yaratadigan kompozitsion qismlarning o'zaro bog'liqligini tushunishga qaratilgan. Matnli operatsiyani amalga oshirishni talab qiladi savollar "Kirishdan maqsad nima?", "Kirish va xulosa qanday qilib moslashadi?", "Matnning asosiy mazmuni kirish va xulosaning grammatik aloqasi semantik qanday vositalar bilan o'rnatilgan?"

Tahliliy matn faoliyati oxirida o'quvchilarga sevimli kitobingiz yoki boshqa sevimli narsangiz haqidagi taassurotingizni ifodalang va taassurotingizni tasdiqlaydigan tafsilotlarni tanlang kabi uy vazifasi taklif qilinadi. Ushbu vazifa

natijalariga ko‘ra o‘qituvchi har bir o‘quvchining ishini shaxsiy muhokama jarayonida batafsil baholaydi.

Quyidagi vazifalarning asosiy maqsadi (hikoya materiallari asosida) matnning mikromavzularini aniqlash va ularni o‘zaro bog‘lash, matnning “mikromavzu” va “xatboshi” kompozitsion elementlarini-tushuntirish, shuningdek tushunchalarni o‘zaro bog‘lash qobiliyati bo‘yicha treninglar o‘tkazildi. Bu maqsadga erishish uchun, o‘quvchilar tomonidan matn turini aniqlash uchun yo‘naltiruvchi so‘zlarni topish amalga oshirildi, asosiy fikrni aniqlash uchun kalit so‘zlarni ajratib ko‘rsatishadi.

Vazifa 1. Matndagi yo‘naltiruvchi so‘zlarni toping va matn turini aniqlang. Matnga savol qo‘yib, suratga olish texnikasidan foydalanib gapingizni isbotlang.

Vazifa 2. Matnda kalit so‘zlarni toping. Ushbu so‘zlarga asoslanib, matnning asosiy g‘oyasini aniqlang.

Vazifa 3. Ushbu matnda nechta xatboshi mavjud? Buning sababini tushuntiring. Vazifa frontal tashkil etildi.

Hechdan ko‘ra kech yaxshiroq!

Sohilda yo‘lovchi kutib turgan qayiqchilardan biriga yuzlandi. Qayiq yaqinlashdi. Olim qayiqqa o‘tirdi. Dengizni tomosha qilib ketayotgan olim qayiqchidan so‘radi:

– Sen hech nahv o‘qiganmisan?

– Yo‘q, men johil bir qayiqchiman.

Olim:

– E voh, juda xafa bo‘ldim. Demak, yarim umring behuda o‘tibdi, – deya achinib qayiqchiga qaradi. Shu vaqt dovul turdi. Keyin dengizning o‘rtasida chayqala boshladi, qayiqchi butun kuchi bilan xavfdan qutulish uchun harakat qildi. Bo‘ron borgan sayin kuchayar, qayiq esa cho‘kish arafasida edi. Shu vaqt qo‘rquvdan dir-dir titrayotgan olimdan qayiqchi so‘radi:

– Ey, har narsani bilgan olim do‘stim. Suzishni bilasanmi?”Yo‘q” javobini olgan qayiqchi:

– Voh, voh, sen umringni behuda sarflabsan. Hozir butun umring ketdi. Chunki birozdan keyin qayig‘im cho‘kadi. Yaxshi bilginki, bu yerda hozir nahv (grammatika) emas, mahv ilmi lozim. Agar mahv ilmini bilsang, qo‘rqmasdan dengizga sakra, – dedi.

Jaloliddin Rumi, «Masnaviy» [196. 46].

BIR SAHIFA SHARHI

O'tmishda mashhur bir kishi yolg'iz o'g'lini uylantirish taraddudiga tushibdi. Doshqozonlarda osh damlanib, uzoq-yaqindan mehmonlar kela boshlabdi. Yigit kuyovnavkarlar bilan kelinni olib kelish uchun karnay-surnay sadolari ostida yo'lga tushibdi. U kelinning ostonasiga yetib qadam qo'yishi bilan nima bo'libdi-yu, holsizlanib yiqilibdi. Sanoqli daqiqalarda behush bo'lib, jon beribdi. Qiyomat qoyim bo'lib, qiy-chuv boshlanibdi.

To'yga atalgan osh janozaga tarqatilibdi. Yaratganning bu ishidan o'zini yo'qotib qo'ygan ota davrining mashhur donishmandi huzuriga borib, voqeani so'zlab beribdi va sababini so'rabdi. Shunda donishmand:

Boravering, tushingizda ayon bo'ladi, ertaga tongda kelasiz, – debdi.

Saharmardonda kelgan otaning ahvolini bayon qilishga til ojiz edi.

Donishmand so'rabdi:

– Xo'sh, ayon bo'ldimi?

– Qayoqdan ayon bo'lsin, axir, men uxlamadim, – deb javob beribdi ota.

Shunda donishmand debdi:

– Unday bo'lsa, quloq soling. Menga ayon bo'ldi. Tushimda bir kutubxonaga borgan emishman. Bir kitobni o'qimoqchi bo'libman. Kutubxonachi kitobni berar ekan, ming istihola bilan qo'shib qo'yibdi:

– Bu kitob dunyo bo'yicha yagona nusxada. Uzoq yurtlardan tolibi ilmlar biri uch oy, boshqasi olti oy yo'l bosib kelib, uni o'qiydilar. Ammo kitobning eng muhim fikr yozilgan asosiy bir sahifasi yo'q – qaysidir nobakor uni yirtib olgan. Musofir tolibi ilmlar ushbu sahifadagi bebaho fikrdan bahramand bo'lolmay, ming afsus-nadomatlar bilan qaytib ketadilar...

Sarosimaga tushgan ota boshiga osmon qulagandek behush yiqilibdi. Bir amallab hushiga keltirishgach, o'ziga kelib, siniq ovozda hikoyasini boshlabdi:

– Ha, o'sha nobakor menman. Yosh talaba edim. Kutubxonada bu noyob kitobni mutolaa qilayotgan edim.

O'qir ekanman, bir sahifadagi murakkab fikrga hech ham tishim o'tmadi. Ikki-uch kun tongdan xuftongacha kutubxonada o'tirar va ko'p martalab shu sahifani qayta o'qir edim. Baribir, bo'lmadi. Bir kuni kutubxonachining ko'zini shamg'alat qilib

kitobning shu varag'ini yirtib oldim va qo'ynimga tiqdim... Bu keyinchalik mutlaqo yodimdan chiqib ketgan edi.

Shundan so'ng ota gunohiga iqrор bo'lib, tavba-tazarru qildi. Yaratganning jazosiga rozi bo'ldi. Yirtilgan sahifa sharhiga bag'ishlab ulkan kitob yozdi. Unga «Bir sahifa sharhi» deb nom qo'ydi va kutubxonaga topshirdi. Umrining oxirigacha bor davlatini sarflab, kutubxona homiyligini zimmasiga oldi. «Sharq hikoyat va rivoyatlari»[196. 45].

HILM NIMA?

Anushervon Buzurgmehrdan:

– Hilm nima? – deb so'rabdi.

– Hilm – axloq dasturxonining tuzi. Hilm so'zini teskari o'qisang, arabchada milh, ya'ni «tuz» so'zi hosil bo'ladi. Hech bir ovqat tuzsiz ta'mga ega bo'lmaydi. Hech bir xulq ham hilm, ya'ni muloyimliksiz kamol topolmaydi, – deb javob berdi.

Anushervon yana undan:

– Hilmning belgilari qanday bo'ladi? – deb so'radi.

– Uning uch alomati bo'ladi, – deb javob berdi Buzurgmehr, – birinchisi – birov senga qovog'ini solsa yoki achchiq so'zlarni aytsa ham, unga nisbatan shirin so'z aytasan, agar u o'z fe'li bilan xafa qilsa, uni xursand qilishga urinasan. Ikkinchisi – g'azab o't olib osmonga o'rlagan paytda ham sukut qilib, xomush bo'lib turasan. Uchinchisi – biror kimsa kirdikori bilan g'azabga loyiq bo'lsa ham, g'azabni ichga yutib, o'zingni bosasan! «Sharq hikoyat va rivoyatlari» [196. 47].

Tarbiyaviy dialogda bolalar ko'makchi-fe'llarni nomladilar, matnning asosiy g'oyasini ochishga yordam bergan kalit so'zlarni topadilar, shundan keyin o'quvchilar uning kompozitsion va semantik tuzilishini tahlil qilib, tushuntirib berdi. Mazmunini ketma-ket tahlil qilib, hikoya kompozitsiyasi elementlari bog'liq bo'lgan mikromavzular, kirish, harakatning boshlanishi, rivojlanishi, avj nuqtasi, xulosa ta'kidlanadi.

UMUMIY XULOSALAR

“Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari” mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mustaqil matn yaratish kompetensiyasi o‘qish savodxonligi, ijtimoiy muloqot, axborot madaniyati va insonning umumiy madaniyati ko‘rsatkichi kabi savodxonlik ko‘rsatkichlaridan biridir. Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish, nafaqat o‘rta ta’lim jarayonida, balki maxsus va oliy ta’limda kommunikativ-kognitiv faoliyat asosi hisoblanadi, zamonaviy ma’lumotlar davri sharoitida uzluksiz ta’lim uchun alohida anglashilishi muhim bo‘lgan matn ma’lumotlarini qabul qilish va sharhlash malakalarini egallash, doimiy o‘zgarib turuvchi olam bilan moslashuv zarurati, shaxsni kasbiy sohadagi kommunikativ faoliyatini optimal tarzda amalga oshirish qobiliyatini shakllantiradi, kommunikativ-kognitiv faoliyat jarayonida to‘laqonli ishtirokchi sifatida faol harakatlar imkonini ta’minlaydi.

2. Yozma nutqning odatiy-refleksiv va tezkor-operatsion xususiyatlari bilan assosatsiv uyg‘unlashtirish asosida aniqlashtirilgan o‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari va omillari bugungi kun umumiy o‘rta ta’lim maktablariga qo‘yilayotgan xalqaro baholash dastur talablarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etishni ta’minlaydi.

3. Refleks fikrlash tajribasi matn faoliyatini amalga oshirishdan xabardorlikni ta’minlaydi va o‘quvchining tugallangan matn bilan ishlashda muallif pozitsiyasida tasavvur qilish qobiliyatini shakllantiradi, shuning uchun uni tushunishga yaqinlashtiradi va o‘quvchi matn yaratishda o‘zini tinglovchi holatiga qo‘yadi, shu tarzda aloqa holati hamda xususiyatlarni hisobga olgan holda qabul qiluvchi tomonidan idrok etilishini hisobga olib o‘z fikrini amalga oshiradi.

4. Modellashirishning universallik va normativlik tamoyillarini maqsaddan natijaga yo‘naltirish hamda metodologik, tashkiliy, didaktik va natijaviy komponentlarning izchilligini modellashirish usuli orqali ta’minlash asosida ishlab

chiqilgan sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirishning texnologik modeli muallif fikrini aniqlash va yaratilgan matnda o'z rejasini amalga oshirish jarayonlarining muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi.

5. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidan real ta'limiy sharoitda foydalanish asosida takomillashtirilgan matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari metodikasini PISA xalqaro baholash dastur talabalari asosida takomillashtirilishi zarur.

6. Matn yaratish faoliyati tushunchasini o'quvchilar va o'spirinlar tomonidan ongli idrok etilishi matnning og'zaki muloqot uchun ishlatiladigan kommunikativ birlikdan farq qilishining anglashlariga yordam beradi. Buning natijasida qaror topadigan matnli amallar va amalga oshiriladigan operatsiyalarni egallash o'quvchini nafaqat tinglovchidan faol kitobxon darajasiga ko'taradi.

7. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish uchun matn faoliyatini takomillashtirishning asosiy didaktik sharti sifatida, didaktik tizimning barcha tarkibiy qismlarini: motivatsion, aksiologik, mazmuni, texnologik, hissiy va refleksiv ko'rib chiqish zarur. Ularning o'quv jarayonidagi o'zaro ta'siri matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda matn faoliyatli o'qitish modelini amaliyotga joriy etishning konseptual g'oyasini tashkil qiladi.

8. Emotsional-obrazli, intellektual-ijodiy, refleksiv nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy-didaktik komponentlarini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga pedagogik-psixologik jihatdan motivatsion-dagnostik moslashtirish o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashning muhim shartidir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

umumta'lim maktablarida ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni o'rganish, tahlil qilish maqsadida Xalqaro baholash dasturlari tashkiliy tuzilmasi faoliyatini yo'lga qo'yish lozim;

xalq ta'limi tizimida xalqaro baholash dasturlari bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish va uning shakllari bo'yicha malakali trenerlar tayyorlash faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq;

umumta'lim maktablari uchun tavsiya etilgan ta'limning asosiy, yordamchi va didaktik vositalar tizimini PISA xalqaro baholash dasturi talablaridan kelib chiqib takomillashtirish talab etiladi;

matn yaratish faoliyati talablari asosida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ishlar jarayonini loyihalashtirish hamda o'qitishni individuallashtirish, intensivlashtirish va optimallashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

